O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

5A111800-"Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi"(Maktabgacha ta'lim)

Yusupova Shoxida Xusainovna

# "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi " mavzusida

magistr darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:p.f.d.dotsent N.N.Djamilova

“___”__________2020-yil

____________________imzo

Kafedra mudiri:p.f.n dotsent. G.E.Djanpesova.

“Himoyaga tavsiya etilsin.”

“___”__________2020-yil

____________________imzo

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: R.SH.Berdiqulov

“Himoyaga ruhsat berildi”

“___”__________2020-yil

____________________imzo

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi
ДП-96

Toshkent 2020

Xusainovna“Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi”

***AnnotatsiY.*** Mazkur magistrlik dissertatsiyasi ishi **maqsadi:** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish nazarda tutilgan...

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mezonlari va modeli ishlab chiqildi va ish shakllari takomillashtirildi. ilmiy uslubiy tavsiyalari ishlab chiqildi..

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati**.Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ish tizimini asoslanganligi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mezonlarini aniqlashtirilganligi, ish shakllarini taklif etilgan mezonlarga mosligining ta'minlanganligi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagog, tarbiyachi ,bolalar,kitob kitobxonlik madaniyati,kutubxona,mashg'ulot.

**ANNOTATION OF MASTER’S DISSERTATION**

**By ShohidaYusupova on**

**“Forming reading culture in senior preschool children”**

**The goal of the present master’s dissertation**: developing the issues of forming reading culture in senior preschool children

**The degree of novelty of the research**: criteria and model for the formation of a culture of reading in preschool children have been devoloped and forms of work have been improved and scientific methodological recommendations were developed.

**The scientific value of the research results** lies in the justified system of the study onforming reading culture in senior preschool children;the defined criteria for forming reading culture in senior preschool children; the provided correlation of research form and suggested criteria.

Keywords:Preschool education organizator,pedagogue,educator,bookchildren, reading,reading culture,library,training.

**MUNDARIJA**

**KIRISH ……………………………………………………………...7-16**

**I BOB MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH NING NAZARIY ASOSLARI...........................................17**

**1.1** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida...........................................................................17-29

**1.2** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mohiyati.................................................30-38

**Birinchi bob yuzasidan xulosalar.......................................................39-41**

**II BOB MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI.......................................................42**

**2.1** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.........42-51

**2.2** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda loyiha texnologiyalaridan foydalanish ………........................................................................52-66

**Ikkkinchi bob yuzasidan xulosalar** ..........................................................67

**III BOB MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA**

**KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH-**

**DA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNING NATIJALARI.........................................66**

**3.1** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari……….................68-80

**3.2** Tajriba-sinov ishlarining natijalari………...........................80-85

**Uchinchi bob yuzasidan xulosalar**.....................................................86-87

**Umumiy xulosa va tavsiyalar..............................................................88-89**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI.............................90-94**

**ILOVALAR..........................................................................................95-99**

**IZOHLI LUG'AT....................................................................100-102**

**KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda bugungi kunda juda katta islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishfaoliyatini yanada rivojlantirishchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ3276-sonli qarori “Maktabgacha

ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF5198-sonli Farmoni qabul qilindi.[1]Qabul qilingan meyoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning "2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y,"Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishfaoliyatini yanada rivojlantirishchora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori

.09.2017y,"Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori
.09.2017 y.,"O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli

tashkilotlarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim sohasining birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta'lim tashkilotlari faoliyatini me'yorlashtiruvchi -"Kadrlar tayyorlash milliy dastur", "Ta'lim to'g'risidagi qonunning shuningdek,O'zbekiston Respublikasida "maktabgacha ta'lim to'g'risida Nizom", —"Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari", —"Ilk qadam" Davlat dasturi kabi muhim hujjatlarining qabul qilinishi tarixiy voqea bo'ldi. Sohaga e'tibor kuchaydi, dasturlarda ijobiy o'zgarishlar boshlandi.Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifatini yaxshilash hamda

ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev rahbarligida 2017-yil 19-dekabr kuni o‘tkazilgan majlisda belgilangan vazifa topshiriqlardan kelib chiqib, haftaning Juma kuni "Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish kuni"deb belgilangan holda, shu kuni tuman va shahar maktabgacha ta’lim bo‘limlarining hisobotlarini eshitib borish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa soha xodimlarini ishga mas’uliyat

qarori 30.09.2017 y.,“Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF5198-sonli Farmoni 30.09.2017yil.

bilan yondashishlariga yana bir turtki bo‘ldi. Har bir soha singari maktabgacha ta’lim sohasida ham qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va davr ehtiyojiga qarab, o‘zgarib-yangilanib turiladi. Respublikada ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlar mohiyatini chuqur anglab etish bilan bog‘liq faoliyat turlari muvofiqlashtirildi.

Uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari qatorida maktabgacha ta’limining milliy modelini aks ettiruvchi "Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi - bu maktabgacha ta’lim tizimini rivojlanishi va uning ta’lim tizimidagi ustuvorligini ta’minlovchi Konseptual Nizomdir. Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi – maktabgacha ta’limning xalqaro andozalarga mos zamonaviy yangilanish tamoyillari va modellarini yorituvchi huquqiy-me'yoriy hujjatdir.

Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi – maktabgacha ta’limni 2030- yillarga mo‘ljallangan takomillashuv strategiyasini belgilab beruvchi nazariy asosdir.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi ―"Maktabgacha ta’lim metodikasi’’ jurnalini ta’sis etdi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi bilan

birgalikda ta’lim milliy tillarda olib boriladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv-tarbiya jarayonlarida ingliz va rus tillarini, ta’lim rus tilida olib boriladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv-tarbiya jarayonida ingliz va o‘zbek tillarini o‘rganishni joriy etish yuzasidan takliflar tayyorlanishini rejalashtirdi.2016-yil 29dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "2017-2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"qarori e’lon qilindi.[1]Bugungi kunda mamlakatimizda "2017-2021 yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi" asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va halqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda[2]

Mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv adabiyotlari yaratish va o‘quvchilarga etkazishning mustahkam tizimi yaratildi, unda

O‘zbekistonda ta’lim berilayotgan ettita tilda darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining "Talim to‘grisida"gi Qonunida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilgan: "Yosh avlodni ma’naviy – axloqiy tarbiyalashda halqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga asoslangan samarali tashkiliy , pedagogik shakl va

[1] "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror Xalq so‘zi 2016-yil 30-dekabr.
[2] "O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi" Xalq so‘zi 2017-yil 8 fevral.

vositalari ishlab chiqilib,amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni xar tamonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi,”-deb alohida ko‘rsatib o‘tilgan.[3]

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishining mohiyati, uning sur’atlari insonlarning ma’naviy kamoloti darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Qaysi erda ma’naviy kamolot yuksak bo‘lib ma’rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, shu jamiyat gullab rivojlangan, taraqqiy etgan.

Biz qurayotgan demokratik-xuquqiy jamiyatning uch muhim tomoni bor: iqtisodiyot, siyosat va ma’naviyat. Bu tomonlar qancha mustahkam va baquvvat bo‘lsa kelajagimiz ravnaqi ham baquvvat bo‘ladi.

O‘zbekistonning buyuk davlatlar qatoriga kirishi, kelajagi obod va farovon bo‘lishi, huquqiy demokratik davlat adolatli fuqarolik jamiyati maydonga kelishi ko‘p jihatdan yoshlar tarbiyasiga bog‘liq.

Biz yashayotgan zamin qadim zamonlardan beri madaniyat va ziyo maskani bo‘lib, halqimiz esa dunyoni larzaga keltirgan ulug‘ zotlarni tarbiyalab, voyaga etkazgan halqdir. Bugungi kunda faxrlanib, moddiy meros borasida ham, ma’naviy meros borasida ham dunyoning sanoqli mamlakatlarigina bizning davlatimiz bilan bellasha olishi mumkin deb, baralla ayta olamiz. Asrlar osha qanday yutuq va marralarga erishgan bo‘lsak, albatta, buning zamirida halqimizni kitobga bo‘lgan mehr va mutolaaga bo‘lgan ishtiyoqi mujassam bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017-yil 13- sentabrdagi PQ -3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin.Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘grisida”gi Qonuni.,T.: Sharq nashriyoti 1997 y 6 б.

nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi[4]

Kitob mahsulotlarini nashr etib va tarqatish tizimi rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamdan targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi qabul qilindi: unga ko'ra dasturda ko'zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Axborot – kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim tashkilotlari axborot – resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va tashkilotlarning Ma' naviyat xonalarini o'qitish – uslubiy, texnologik adabiyotlar, adabiy – badiy , ma'rifiy va ilmiy – ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnik ba'zasini mustahkamlash.

Kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir tashviqot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar va kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida «Eng kitobxon maktab», «Eng kitobxon mahalla», «Eng kitobxon oila», «Eng faol kutubxonachi»,kabi ko'rik tanlovlarning saralash bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazishni yo'lga qo'yish.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi**.Mazkur muammo xalq pedagogikasi, buyuk mutafakkirlarning ta'limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog'langan holda talqin etilgan.Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Axmad Yugnakiy,Abdurahmon Jomiy,Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy, Zahriddin Muhammad Bobur, keyinroq esa Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta'limiy – axloqiy qarashlarida kitob va uning ilm olishdagi o'rni haqidagi fiklari bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

---

[4] "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori PQ -3271 son "Xalq so'zi"2017 yil 14 sentabr

Shuning uchun ham ma’naviyat, ta’lim, xususan oila muammolari bilan shug‘ullangan faylasuf, psixolog, pedaagog, adabiyotshunos olimlar oila kitobxonligining yosh avlod ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rniga alohida axamiyat berganlar.

X.Ziyoev, B.Ziyomuhammedov, A.Ibrohimov, M.Imomnazarov, Ibrohim Karimov, Q.Nazarov, T.Mahmudov, J.Tulenov, E.Yusupov Z.G‘afurov va boshqa filosof olimlar ma’naviyatning asl mohiyati, uning tarkibiy qismlarini, ma’naviyat va mustaqillikning o‘zaro aloqadorligi, ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti, milliy ong va milliy mafkuraning shakllanishiga ta’siri masalalari bilan bog‘lab tadqiq etadilar.Benjamin Spok, Y.Azarov, V.A.Suxomlinskiy, S.Marshaklar o‘smir yoshida bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabat, ularning bo‘sh vaqtini tashkil etish, intellektual, ma’naviy – axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi bilan bir butun, yaxlit aloqada tadqiq etsalar keying o‘n yillikda psixolog olimlar M.Voxidov, M.Davlatshin,

V.Karimova, E.G‘oziev, B.Qodirov, G.Shoumarovlar esa o‘smirlarning yosh xususiyati va uning tafakkurini rivojlantirish omillari, ular qobiliyatini namoyon bo‘lish xususiyatlari bu borada ota-onalarning vazifalariga doir ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Pedagog olimlar O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova, U.Maxkamov, M.Quronov, S.Ochilov M.Nigmatovalarning tadqiqodlarida oilada bolalar kitobxonligi, mustaqillik va ma’naviy kamolot negizlari, shaxsni ma’naviy – axloqiy shakllantirish hamda komil inson tarbiyasida kitobning o‘rni kabi muammolar bilan uyg‘un xolda tadqiq etildi.

Keyingi yillarda kitobxonlik muammolari va uni xal etish bo'yicha A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, S.Matjonov, M.Mirqosimova,T.Niyazmetovalar adabiy ta’lim jarayonida, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, oilada bolalar kitobxonligini tashkil etishda kitob bilan ishlash metodlari haqida tadqiqotlar olib borganlar.

M.Murodov,X.Jamolov, F.Habibullaev, L.A.Nikitina, L.Strel’kova, I.V.Grebennikov, N.I.Bocharova. O.G.Tixinova va boshqalar esa kitobxonlik, oila kitobxonligi,

kutubxonalar bilan hamkorlik muammolariga doir tadqiqot ishlari olib bordilar.Xususan, M.M. Nigmatova maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tadqiq etganlar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida: bolalar adabiy asarini o‘qish va tinglash jarayoni, bola va kitob o‘rtasidagi aloqa jarayoni, maktabgacha yoshdagi yoshga oid adabiy bilimlarni egallash jarayonlari jihatlari bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish uchun haqiqiy ehtiyoj mavjud.

Shunday qilib, mavjud qarama-qarshiliklar yangilanishi kerak.

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilishda o‘qishning asosiy ta’lim qobiliyati, inson madaniyatini o‘zlashtirish usuli va maktabgacha ta’lim fenomenini kam baholaydigan uslub sifatida muhimligini belgilaydigan ijtimoiy buyurtma o‘rtasida;

- to‘plangan boy materiallar va ushbu yondoshuvlarni ajratish, adabiy ta’limning barcha bosqichlarida muhim bo‘lgan bilim sifatida etarli darajada umumlashtirish.

Ushbu umumiy qarama-qarshiliklar quyidagi darajalarda mavjud bo‘lgan pedagogik nazariya va amaliyotning nomuvofiqligi bilan belgilanadi.

- ijtimoiy-pedagogik: ilmiy va pedagogik: ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta’minlaydigan maktabgacha ta’lim sohasidagi ilmiy va nazariy ishlanmalarning dolzarbligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘qish madaniyatini rivojlantirishning kontseptual asoslari o‘rtasidagi;

- ilmiy va uslubiy: maktabgacha yoshdagi bolalarga yo‘naltirilgan axborot-media texnologiyalarining jadal rivojlanishi va maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayonining rivojlanmagan uslubiy asoslari o‘rtasida.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyati  va uning rivojlanishining konseptual asoslarini uzluksiz adabiy ta'limi sharoitida rivojlantirishni har tomonlama o‘rganish zarurati.

Aniqlangan qarama-qarshiliklar tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi: "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini  shakllantirish texnologiyasi.".

**Tadqiqotning maqsadi**: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasini  takomillashtirish.

**Tadqiqotning obekti**: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda  texnologiyalardan foydalanish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining mazmuni, shakllari, metodlari, usullari  va vositalari.

**Tadqiqotning vazifalari:**

1.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish.

2.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mezonlarini aniqlash.

3.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning modelini  takomillashtirish.

4.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish  bo'yicha ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish. **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**.

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishining pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘rganildi.

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mezonlari ishlab chiqildi.

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish modeli takomillashtirildi..

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ish shakllari takomillashtirildi.

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotlarning asosiy masalalari va farazlari.**

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mumkin bo‘ladi qachonki, Agarda:

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik- psixologik xususiyatlari asosida bolalar bilan tizimli ish olib borilsa; -Tarbiyachilar bilan maktabgacha katta yoshadagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha seminar trening o‘tkazilsa;

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha kitob ko‘rgazmalari tashkil etilsa;

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda bolalar shoirlari, yozuvchilari bilan uchrashuvlar tashkil etilsa:

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan kitob do'konlariga doimiy ravishda sayohatlar uyushtirilsa.

**Tadqiqot mavzisi bo‘yicha metodlarning tavsifi.**

Nazariy metodlar –tadqiqot muommosi bo‘yicha pedagogik- psixologik ,ilmiy va metodik adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuv; qiyosiy tahlil; pedagogik tajriba sinov, matematik-statiktik tahlili.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining ish tizimini asoslanganligi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mezonlarini aniqlashtirilganligi, ish shakllarini taklif etilgan mezonlarga mosligining taminlanganligi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** olingan natijalardan pedagogik oliy ta'lim tashkilotlarida, "Maktabgacha pedagogika", "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi", "Bolalar adabiyoti" fanlarining mazmunini takomillashtirishga hizmat qiladi.Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik ta'minotdan tarbiyachilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

# I BOB MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

## 1.1 Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi pedagogik muammo sifatida.

Maktabgacha ta’lim tizimi har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash hamda uni butun kelajagini belgilab beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga milliy qadriyatlarimizni ham millatimiz kelajagi bo‘lgan bolalarimiz qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan maskandir. Shu bois mamlakatimizda bu sohaga e’tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 30 -sentabrda “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq: maktabgacha ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihati belgilab berildi.[5]

Insonning maktabgacha ta’lim yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter hislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va ahloqiy sifatlarni asoslari yuzaga keladi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g‘oyasi – milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’naviy ezgulikka undaydigan olijanob g‘oya sifatida ulug‘langan.[6] Mazkur g‘oyani yosh avlod ongiga singdirishda tarbiyachilarning roli beqiyos. Bu esa

---

[5] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida‖gi PQ-3305-sonli qarori.

[6] Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.T.: Sharq 1997 , 2-bet

ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo‘lishni, bilimi, mahorati, ilmiy nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, extiyojlaridan kelib chiqqan xolda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi kunning talabi xisoblanadi.

Kitob insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi bilim manbaidir.Kitob fikrlash quroli xazinalar kaliti hisoblanadi. Uni qadrlash,hurmat qilish asrab-avaylashimiz lozim. Kitob o‘qish, uni mazmunini anglab etish,unga singdirilgan ma’no mazmunini qalban tuyish va bu orqali ma’nan ozuqaga ega bo‘lishdir. Kitobni mutoala qiluvchi har qanday inson yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lishi mumkin.

Jamiyatimizda bugungi kunda kitobxonlik masalasiga katta e’tibor berilyapti.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13- sentabrdagi PQ -3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin.Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish boyicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi.[7]

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning bo‘limlarida qarorda belgilangan vazifalarnihal etishga qaratilgan chora tadbirlar asosida rejali va maqsadli ishlar yo‘lga qoyildi.Ayniqsa mamlakatimiz boylab “ Yosh kitobhon oila”, “Yosh kitobxon” tanlovlarining yo‘lga qo‘yilishi va g‘olib kitobxonlar turli sovg‘alar bilan taqdirlanishi bunga misol bo‘la oladi.Xususan Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga katta

---

[7] “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ -3271 sonli qaror “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 15- sentabr.

e’tibor qaratilmoqda.Buning uchun albatta oilada va maktabgacha talim tashkilotlarda bolalarni kitobga mehr uyg‘otish uni sevishga asrab –avaylashga o‘rgatishimiz lozim.Bunda ayniqsa oilada bobo –buvisi, ota –onasining maktabgacha talim tashkilotlarida esa tarbiyachi va pedagoglarni o‘rni kattadir. Kitob bolaning aqliy ma’naviy estetik jihatdan boyishi uning kelajakda etuk inson bo‘lib etishishiga uchun yordami kattadir.

Kitob — axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli, badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra 48 sahifadan kam bo‘lmagan, nodavriy nashrni kitob deb nomlash qabul qilingan.[8]

Kitobxonlik- bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborish,ongida ma’lum tuyg‘ularni,e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish,uni o‘ylashga,hayotda qanday yashashga o‘rgatish ,fikr yuritishga o‘rgatishdir.Kitobxonliko‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi,balki u tushunib o‘qish,ya’ni maqsadli o‘qishdir.

Qo‘xna toshbitiklardan boshlangan kitob va kitobnavislik insoniyat tamaddunining eng buyuk, oliy kashfiyoti va mo‘jizasi sifatida bani bashar tarixida dunyo turguncha quyoshday porlab, charaqlab turmog‘i muqarrar. Eng Qadimgi turkiy toshbitiklardan tortib O‘rxun- Enasoy yozuvlarigacha, Zarautsoy g‘oridagi suratlaru Afraosiyob naqshlari, qadim Baqtriyaning ko‘xna Kushon xatlaridan toki Oltoy tog‘laridagi toshlarga bitilgan xarflarga qadar-butun bashariyat avlodiga xalqimiz tamaddunining nasl-nasabimizu ma’rifatimiz tomirlarining naqadar qadimiyligi bilan buyukligidan darak bermaydimi.

---

[8] Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ -3271 sonli qaror “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 15- sentabr.

Eng qadim va donishmand noshir sifatida xalqimiz “Avesto” singari ulkan nashrni insoniyat tamadduni va tarixining kitob javonida xanuzga qadar saqlab kelmoqda.[9]

“Temur tuzuklari” timsolida bizning ajdodlarimiz davlatchilik va sarkardalik, lashkar tutish va xarbu zarb yuritishning qomusiy tamoyillari va yo‘riqlarini tuzganlarida, bugun dunyoga dag‘dag‘a solayotgan ayrim mamlakatlarning Yer yuzida nomi nishoni xam yo‘q edi. Xolbuki, ayni shu davlatlarning armiyasida Amir Temur bobomiz tuzuklaridagi lashkar tuzish, jang yuritish san’ati va uslublari xarbiy taktika darslari sifatida xozirga qadar o‘qitilib, o‘rgatilib kelinmoqda. [10]

Bobolarimiz butun ro‘yi olamni, Yerni xam, samoni xam bilim bilan, tafakkur va kitob bilan zabt etgan. Seryulduz osmon Mirzo Ulug‘bek bobomizning duraxshon kutubxonasiga o‘xshaydi. Termiziylardan Buxoriylargacha, Ibn Sinolaru Beruniylar, Ulug‘beklaru Farg‘oniy va  bilan Xorazmiy bobolargacha jaxonni aqlu zakovat, ilmu xikmat bilan egallagan buyuk jaxongirlar bo‘lgan.

Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta’rif berganlarida, u inson ma’naviy olamini boyitishini nazarda tutganlar. Kitob vatanga muxabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mexr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi

Bu borada istiqlolimizning Bosh me’mori, mustaqil davlatimiz asoschisi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning jasoratlarga to‘la sermazmun xayot yo‘li bilan kitoblariyu xikmatlari yoshlarimiz uchun tom ma’noda matonat va sadoqat, yurtparvarlik va fidoyilikning betakror timsoli, xaqiqiy ibrat va ma’rifat dorilfununi bo‘la oladi. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, “ O‘zbekiston mustaqillikka erishish  ostonasida”, “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” kitoblari xazilakam kitoblar emasligini, ularda el-ulus bilan xalqni millatga, mamlakatni

---

9 X.Xomidiy “Avesto qaydlari” T.: 2002 yil.

10 “Temur tuzuklari”.T.: Mavorounnahr nashriyoti 2010y

esa xaqiqiy Vatanga aylantira olgan ma’ruza va maqolalar borligini bugungi avlod bilmog‘i, yuragida, fikru yodi bilan jismu jonida olib yurmog‘i kerak.Millatning buyuk bir farzandi, matonatli Buyuk shaxsning bedor yuragi urib turgan bu asarlar to o‘zbek xalqi mavjud ekan, toki O‘zbekiston deb atalmish ozod Vatan paydo ekan-xech qachon eskirmaydi, xamisha mardlik va shijoat, g‘urur va iftixorning chinakam tarjimai xoli va sadoqatnomasi bo‘lib yashayveradi.

Bugungi bolalar ertangi kun xalqqa aylanadi,-dedi davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoev.- Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak.Axborot-kommunikatsiya soxasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, axolining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga aloxida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta’rif berganlarida, u inson ma’naviy olamini boyitishini nazarda tutganlar. Kitob vatanga muxabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mexr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi.

Mamalakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoev raxnamoligida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish xamda targ‘ibot qilish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohatlar olib borilmoqda. Zero, “kitob bizni erdan ko‘kka ko‘taradigan, barkamollik sari etaklaydigan, qalbga yorug‘lik baxsh etadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o‘rgatadigan insoniyatning eng noyob kashfiyotidir”, deydi davlatimiz raxbari.[12]

“Ayni paytda, -deydi Shavkat Miromonovich, -axborot- kommunikatsiya soxasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini

12 12Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ -3271 sonli qaror “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 15- sentabr.

oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga aloxida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jaxon adabiyotining eng sara na’munalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor bershimiz muhim axamiyat kasb etadi”.[11]

Ta’kidlanishicha, bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot soxasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti xujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta’lim tashkilotlarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari xamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘zdavkitob savdo ta’minot” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Farmoyishning ibratli jixati shundan iboratki, unda kitob mahsulotlari nashr etish, tarqatish, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini bugungi kundagi xolati, mavjud kamchilik, xatolar ro‘y-rost ochib berilgan. Ayniqsa, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual saloxiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim tashkilotlarni ta’minlash, milliy va jaxon adabiyoti namayondalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmagani, ta’lim va madaniyat tashkilotlari uchun kitob xarid qilishga mablag‘lar etarli darajada mavjud bo‘lgan manbalar xisobidan jalb etilmayotgani, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta’lim tashkilotlari, kutubxonalar va maxallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu

[11] Ushbu manba

jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilagan tadbirlar yuksak talablar darajasida emasligiga aloxida e’tibor berilgan.

Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni erdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch xisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustaxkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir ma’shala xisoblanadi. Shuning uchun xam bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish xar doim xam millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar xisoblanadi.Arastu xakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayxon

Beruniygacha, Jaloliddin Rumiydan-Alisher Navoiygacha, Soxibqiron Amir TemurdanMuxammadshari Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada axamiyati yo’qolmaydigan tadqiqotu - kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o‘rganilishi, ular ilmiy-ma’rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi xam mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muxammad Jabalrudiyning kitob xaqidagi quyidagi fikrlariga bir quloq tutaylik:.”Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suxbatdosh yo‘qdir. Kitob fasoxat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqlikdan xoli xamroxdir.Yolg‘izlikda va g‘amli ayomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday xamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suxbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi.Uning suxbatidan senga shunday fayzli foydalar etadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suxbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu

xilm mujassamdirki, u “Kitob aql qalasidir”, deganlar”[12] Kitob barcha muammolarni xal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun xam yurtimizda kitob bilan oshno bo‘lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig‘dek asraganlarni ziyoli deb ataganlar.

Xo‘sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular, fikrimizga quyidagilardan iborat: o‘zining kasbiy-mutaxassislik xamda badiiy-ma’naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o‘zi uchun zarurini o‘qish; kitob ustida ishlash malakasini obdon o‘rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o‘qiy bilish; o‘qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o‘qiganlaridan xayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko‘chirib olish, notanish bo‘lgan so‘zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; kitob bilan muomulada eng qadrdon do‘stingga munosabatda bo‘lganday e’tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz xoliga keltirmaslik uchun undan to‘g‘ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan o‘ylab, diqqat-e’tibor bilan o‘qish malakasiga ega bo‘lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o‘rganish; o‘qigan kitobni do‘stlar bilan o‘rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar xam o‘qib chiqishiga erishish; xar bir yaxshi kitobni ilm qalasining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta’minlash.

Kitob mutoalasiga oid hamda kitobxonlik masalalariga fikrlar hikmatli so‘zlar sharq va g‘arb alllomalari,shoiru-fuzalolar ijodiy faoliyatida muhim o‘rin tutganini ko‘rishimiz mumkin.Alloma Abu-Rayhon Beruniy so‘zlaridan yoki,u kishi yaratgan asarlarini farzandlari sifatida qabul qilishni istaydi:

-Mening barcha kitoblarim-farzandlarimdir.

---

[12] Mashriqzamin-xikmat bo‘stoni.-Toshkent,1997.39 bet

Shu ma’noda Abu-Abdulla Rudakiyning bitgan satrlari ibratlidir:

Kitob bilimdan ortiqroq yo’qdir xazina, Yig‘ib
olgin kuching borida.

Buyuk ustod Abdurahmon Jomiy kitobnining har sahifalarini bog‘ guliga o‘xshatadi:

-U bog‘ gulidir, har bir guli kitob varag‘i, bahosi esa oltin.

Ulug‘ zot Alisher Navoiyning kitobga munosabati oddiy va zarhal harflar bilan bitilgan: “Kitob ustoz,u bilmaydi zaru minnat”,

Yoki:“Kitobdan yaxshi do‘st yoqdir dunyoda”.

Allomaning 4 yoshlik chog‘ida Farididdin Attorning “Mantiq-ut Tayr”kitobini yoddan aytishini eslash o‘rinlidir.

Tarixdan bizga ma’lumki, buyuk mutafakkirlarimiz tarbiyasi juda erta ya’ni 3- 4 yoshdan boshlab,kitob mutoalaa qilishga,enagalari (tarbiyachilari) yordamida ertaklar,dostonlar,rivoyatlar, hikmatli so‘zlarni tinglashga kitob bilan do‘stlashishga katta ahamiyat berganlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak buyuk allomalarimiz ham olim,ham shoir,ham sa’natkor, ham ijodkor bir so‘z bilan aytganda har tamonlama etuk bilimli va komil inson bo‘lib tarbiyalanganlar.Tarbiyachining asosiy vazifasi shogirdlarini baxt yo’llarini izlashga tayyorlashdan iborat. Aytish lozimki, kitob mutoala qilishga, xadislarni tinglash,hamda turli xil maftunkor rivoyatlarni va afsonalarni xalq qahramonlari hayoti haqida rang-barang va ayni choqda qiziqarli mazmunga tayanib, ezgulikka va insonparvarlikka undovchi voqealar bilan yo‘g‘rilgan risolalarni o‘qishga intilish va ularni bilish, shuningdek asarlarni tafakkur etish bizga o‘tmish avlodlarimizdan qolgan mo‘tabar va muqaddas merosdir.

Kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyati inson hayotida suv va havodek zarur va muhimligini deyarli o‘n asr burun alloma Abu –Rayhon Beruniyning odilona fikrlarini ko‘rishimiz mumkin.” Maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. Xadeb bir narsani o‘qib bersang zerikib toqati toq bo‘ladi.Agar kitobxon bir masaladan boshqa masalaga

o‘tib tursa, u xuddi turli tuman bog‘ rog‘larga sayr qilgandayoq bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas, noshqa bog‘ boshlanadi”,-degan edi alloma o‘zining “Saydona “ kitobida.[13]

Kitobxonlik masalasi bo‘yicha uzoq o‘tmish aytgan yuqoridagi fikrlari bugungi kunda xam barcha yoshdagi kitobxonlarni va ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshdagi farzandlarimizni serfayz va maftunkor kitobiy bog‘ -rog‘larga taklif etgandek.Alloma Al-Beruniydan keying avlod vakili Yusuf Xos Xojib yozuvchi,-kitob va kitobxonlikni bir zanjirsimon narsaga o‘xshatib ularni bevosita bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi haqida “Yozuvchilar kitob yozmaganida edi,hikmatni,bilimni qanday qilib bilarding?”,deganida mutlaqo haq edi. Aslida kitobxonlik,ya’ni kitob o‘qish unga amal qilish barchada ham bir xil kechavermaydi.Kitob mutoala qilish va unga insonni ma’naviy boyitib,ma’rifiy kamolot sari etaklaydi.Kitob o‘qishda va unga amal qilish bobida kitobdan harf emas, balki ma’no izlash va mazmunini “chaqish”,undan to‘g‘ri hulosa chulosa chiqara bilish muhim o‘rin tutadi.Binobarin,biz shunday hislatlarini maktab yoshiga etmagan farzandlarimizda kitobxonlik orqali shakllantira olsak,maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilmiy asoslangan va tajribada sinalgan metodikani Respublika miqyosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar o‘zlashtirishlarini ishonch bilan ayta olamizki,kelajak avlod poydevori buyuk ona Vatanning munosib farzandi bo‘lib etishadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik ko‘p jihatdan adabiyot va jamiyat taraqqiyotiga xam va bog‘liq. Kitobxonlik masalalari va muommolari xam adabiyotning, ayni chog‘da kitobxonning o‘zi kabi qadimiydir. Binobarin, Mahmud Kashqariyning “Devonu lug‘ati turk”,Al-Xorazmiyning “Mafotix al-ulum”,Nosiriddin

Bahoriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Hondamirning “Makorinul ahloq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutag‘du bilig “ va Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Boburlarning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli fikrlari

bayon qilingan.”Binobarin,keyingi asrlarda kitobga bo‘lgan munosabat va

[13] Abu rayhon Beruniy“Saydana” T.:1992y

kitobxonlik muommolari mutafakkir olim va shoirlarning diqqat markazida bo‘lgan.Jumladan,klassik adabiyot namoyondasi akademik yozuvchi G‘afur G‘ulom xam kitobni va kitobxonlikni umr bo‘yi ta’riflashdan charchamagan.Uning ta’biri aytganda:

Kitob degani nurdir,xar kitobdan ming jahon,

Mehr muhabbatimiz so‘nmas yulduzday qolur.

G‘arb mamlakatlarining turli davrda yashab ijod etgan shoirlari,yozuvchilari va olimlarning kitob va kitobxonlik madaniyatiga oid fikrlarini keltirib o‘tamiz. Jonatan Svit aytadiki,”Kitob-tafakkur farzandlari[14] “.Shuningdek,ingliz yozuvchisi S.Smayls xam kitob masalasidagi fikrni quyidagicha bildirgan: Kitoblar mangulik xususiyatiga ega.Ular faoliyatning eng umrboqiy mevalaridir.”Biz bilamizki,atoqli rus yozuvchilari ham ma’lum ma’noda o‘z fikrlarni kitob va kitobxonlik bilan bog‘laydilar[15].G‘arb mutafakkirlaridan biri Dakart kitob o‘qish xususida aytadiki:”yaxshi kitoblarni o‘qish – bu eng yaxshi kishilar bilan suhbat qurishga o‘xshaydi.Bu suhbat vaqtida ular sizga o‘xshaganlarning eng ezgu tuyg‘ularini,o‘y firklarini bayon etadilar”- deganida haq edilar.

Biz bilamizki, atoqli rus yozuvchilari va olimlari ham shu ma’noda o‘z fikrlarini kitob va kitobxonlik bilan bog‘laydilar. Rus yozuvchisi N.M.Karamzin shunday hulosaga keladi: ”Kitoblar bilan muomula qilish odamlar bilan muomula qilishga tayyorlaydi.”[16],.Kitob va kitobxonlik haqida rus adibi I.A.Morozov quyidagi fikrlarni ilgari surgan:”Kitob sehrgar …Unda odamzodning aqli mujassam,u kishilik tafakkurining ustuni,Kitobsiz olim-yovvoyilar olimidir’’.

Kitob va kitobxonlik madaniyatiga oid bildirilgan fikrlar xoh u sharq allomalari ijodidan bo‘lsin, xoh u chet el mamlakatlari mutafakkirlari bildirilgan fikrlari bo‘lsin,unda biz munosabat ildizining birligini,hamda fikrlar uyg‘unligini ko‘ramiz. Deyarli barcha

---

[14] Жонатан Свифт. Собрание сочинений в 3 т. — М.: Терра-Литература, 2000. — Т. I. — 480 с.; Т. II. — 480 с.

[15] Смайлс, С. «Бўш қоп тик турмас» // Наука и жизнь. 2006. № 11.

[16] *Каринишина Л. М.* «Пример самоотвержения» // Московский журнал. — 2014. — № 11. — С. 24—31.

satrlarda kitob olamining qudrati va sehri,uning inson uchun eng yaqin do‘stligi, qanday ustozligi nur ziyo tarqatishi kishilarga ezgu ishlarga boshlaguvchi tabiatning mo‘jizasi sifatida e’tirof etiladi. Hulosa qilib aytganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamda oila sharoitida insoniyat daholari tamonidan yaratilgan kitoblar bilan yosh bolalarni oshno etishga va mazmunini anglashga boshlamoq jamiyatimizdagi barcha kishilarning muqaddas burchi bo‘lmog‘i lozim.

Jahonning ko‘pgina xalqlari, hususan o‘zbeklarning ko‘pgina halq o‘gzaki ijodida xam kitob va kitobxonlik masalalari ma’lum darajada bayon etilishini ko‘ramiz. Halqimiz orasida keng tarqalgan hikoyatlarda kitobning kuch –qudrati,inson ruhiyatiga ta’sir etishi va aql idrok hamdazakovat va e’tiqod baxsh etishi na’munalari bayon etilgan. Kitob va kitobxonlik insonni yomon amallardan saqlabgina qolmay,tevarakatrofga yaxshilik urug‘ini sochish,kishilarni ezgu ishlarga chorlash undash va ko‘makdosh bo‘limi nafaqat afsona ertaklarda balki halq og‘zaki ijodining boshqa janrlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, kitobning qadri va kitob sehri, kitobxonlik masalalari halq ijodining maqollarida aks ettirilganki,uni ta’kidlab o‘tishni istar edik;

Kitob o‘qigan o‘zar
Kitob o‘qimagan to‘zar,
Kitob o‘qish boshqa, Uni
uqish boshqa.

Yoki
Kitob ko‘p, umr oz, zarurini o‘qi Oqigan
kitobing mag‘zini uqi.

Kitob-barcha davrlarda bolalarning dunyoni anglashi, do‘st orttirishi, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘makchi bo‘lib kelgan. Bola qalbida Vatanga muhabbat,yurtga sadoqat, odamlarga mehr oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlangan. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog‘liq.U insonni komillik

sari etaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib,xotirasini mustahkamlaydi.Kitob maslahatchi,sadoqatli hamrox,eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi.Bola tarbiyasida uning o'rni muhim.Hamma asrlarda bo'lgani kabi ayni davrda ham yoshlarni Vatanga muhabbat,yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Kitob o'qigan bola o'z bilimi, dunyoqarashi, ruhiyati va manaviyatini boyitib, olamni teran anglay boshlaydi. Hayot va go'zallikni qadrlashni,ajdodlarimiz merosini asrab avaylashni o'rganadi. O'zbek oilalarida kitobga muhabbat,kitobni asrab-avaylash va kitobxonlik qadimiy an'analardan biri bo'lib,xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutib kelmoqda.

Safo Matchonov kitobxonlik tarbiyasi haqida shunday yozadi: "Kitobxonni avvalo, asarda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Bunday qiziqish asta-sekin hissiyotga ta'sir ko'rsatadi. Kitobxonda asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslash mayli uyg'onadi"[17]. Shuning uchun ham oilada ota - ona maktabda o'qituvchi bolalarga kitob tanlashda yordam berishi zarur. Bu borada faqat badiiy asargina emas, o'smir dunyoqarashini kengaytiradigan qiziqarli ilmiy ommabop kitoblar ham,turli ma'lumotnomalar ham muhim rol o'ynaydi . Albatta bu ishda bolalarning individual qiziqishlarini ham hisobga olish zarur. Kitobxonlik qo'lga tushgan kitobni o'qish emas,balki inson qiziqishi va dunyoqarashiga ko'ra tanlab o'qish hamdir. Kitobxonlikdan maqsad bilim va ma'naviy barkamollikka ega bo'lishdir.Badiiy asarlar orqali esa qahramonlar sarguzashtlari, kechinmalari orqali ezgulik va yomonlikning farqiga etadigan, kamtarlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar asosida ular ma'naviyati shakllana boradi.

---

[17] Safo Matjon Komillik mezonlari.T.: Sharq 2010 y

## 1.2.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining mohiyati.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarimizni xalqimizning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, ya’ni millatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlash har doimgidan ham dolzarb masala hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ijtimoiy-tarbiyaviy tashkilotlaridir.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan va o‘tkazilayotgan topishmoqli-adabiy soatlar, ertak va dostonxonlik, she’rxonlik va kitobxonlik oqimlari jajji farzandlarimiz uchun kelajagi buyuk davlat O‘zbekistonning barkamol insonlari bo‘lib etishishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning shaxs sifatida xar tomonlama garmonik rivojlanishi ma’naviy ildizining qanchalik chuqur, ayni choqda keng va mustaxkamligiga bog‘liq. Kitob, kitobxonlik an’anasi qadimiydir, unda vorisiylik, merosiylik va davomiyik o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish

imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talabiga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi ro‘lini oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqodlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida bola shaxsiyatini, uning boshqalar bilan o‘zaro ijobiy munosabatini shakllantirish, axloqiy tasavvurlarni rivojlantirish, vatanparvarlik xissiyotlarini uyg‘otishga alohida e’tibor beriladi.

Maktabgacha ta’limning maqsadi va vazifalari, ahamiyati, mazmuni, jarayonga samarali tomonlarini qayta ko‘rib chiqish; bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullarini aniqlash; so‘nggi o‘n yillikning nazariy izlanishlari (V.V. Abramenkova, N.E. Veraksa, M. B. Zatsepina, S. A. Kozlova, M.V.Komarova ) boshqalarning ilmiy izlanishlarida aks etgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq faolligining psixofiziologik asoslarini, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan badiiy matnni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning o‘qish doirasini o‘rgangan D.B.Elkonin, D.D.Sharipova, R.M.Qodirova,F.R.Qodirova,D.R.Babayeva va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida: bolalar adabiy asarini o‘qish va tinglash jarayoni, bola va kitob o‘rtasidagi aloqa jarayoni, maktabgacha yoshdagi yoshga oid adabiy bilimlarni egallash jarayonlari jihatlari bo‘lgan jarayonlarni o‘rganish uchun haqiqiy ehtiyoj mavjud.

Shunday qilib, mavjud qarama-qarshiliklar yangilanishi kerak.

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilishda o‘qishning asosiy ta’lim qobiliyati, inson madaniyatini o‘zlashtirish usuli va maktabgacha ta’lim fenomenini kam baholaydigan uslub sifatida muhimligini belgilaydigan ijtimoiy buyurtma o‘rtasida;

- to‘plangan boy materiallar va ushbu yondoshuvlarni ajratish, adabiy ta’limning barcha bosqichlarida muhim bo‘lgan bilim sifatida etarli darajada umumlashtirish.

Ushbu umumiy qarama-qarshiliklar quyidagi darajalarda mavjud boʻlgan pedagogik nazariya va amaliyotning nomuvofiqligi bilan belgilanadi.

- ijtimoiy-pedagogik: ilmiy va pedagogik: ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta'minlaydigan maktabgacha ta'lim sohasidagi ilmiy va nazariy ishlanmalarning dolzarbligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻqish madaniyatini rivojlantirishning kontseptual asoslari oʻrtasidagi;
- ilmiy va uslubiy: maktabgacha yoshdagi bolalarga yoʻnaltirilgan axborot-media texnologiyalarining jadal rivojlanishi va maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayonining rivojlanmagan uslubiy asoslari oʻrtasida.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik madaniyati va uning rivojlanishining konseptual asoslarini uzluksiz adabiy ta'limi sharoitida rivojlantirishni har tomonlama oʻrganish zarurati.

Mutolaa madaniyati juda keng ma'nodagi tushuncha boʻlib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega boʻlish, shuningdek kitobdan toʻla ravishda foydala bilishda yordam beruvchi koʻnikmalardan iborat.

Kitobxonlik madaniyati kitobxonga oʻqiyotgan asarini toʻlaqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar gʻoyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma'lumotnoma bibliografik apparatidan oʻzini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yoʻllarini oʻrgatadi. Kitob tanlash, uni tez oʻqish, oʻqilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitobxonlik madaniyatining tarkibiy qismlariga kiradi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi juda keng ma'noda qoʻllaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma'lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan

umumiy foydalana bilishdan to ijodiy o‘qish, kitob muallifiga oshno bo‘lib, uning asarini chuqur tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi.  bilim beruvchi vosita sifatida kishilarning iymonli bo‘lishi uchun xizmat qilib, yashash tarzining hayot kechirish qoidalarining qomusiga aylangan.

Kitob har bir insonning ayniqsa, bolalarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Zero, qadriyatlar orasida o‘qish, mutolaa va bilim olish alohida o‘rin tutadi.
Bugungi kunda butun dunyo axborot a’sirida yashamoqda. Chunki jahonda har kuni juda ko‘p miqdorda kitob bosilib chiqadi. Buning ustiga benihoya ko‘p jurnallar, to‘plamlar, gazetalar. Kino, teatr, radio, televizor va boshqa xilma-xil vositalar istasangistamasang axborot berib turadi. Chor-atrofni o‘rab turgan muhit ham katta axborot vositasiga ega. Mana, shularning orasidan inson o‘ziga keraklisini ajratib olmog‘i lozim, bu esa mutolaa  o‘qish madaniyati qanday va qay darajada tarbiyalanganiga bog‘liq.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mutolaa madaniyati juda keng tushuncha va bag‘oyat murakkab muammo bo‘lib, taxminan quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kitob tanlay olish;
2. Kitobni qanday o‘qishni bilish;
3. Kitob o‘qiganda nimalarga e’tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;
4. Kerakli ma’lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish;
5. Olingan bilimni èki xabarni qanday etkazib berish;
6. Qayta o‘qish  kitobxonlik ko‘nikmasini odatlantirish;
7. Kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish;
8. Kitobni tez va sekin o‘qishni farqlay olish;  9.  Kitobni o‘qib, uning fusunkor olamiga kira bilish;

10. Kitobni mustaqil o‘qiy bilish.

Kitob mutolaasi madaniyatiga kitob xarid qilish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e'tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o'qish jarayoni, o'qiganni o'ziga va hayotga tatbiq eta bilish kabilar ham kiradi.

O'qishlar har xil bo'ladi, — deb yozadi taniqli adib Asqar Muxtor, — birov ermak uchun o'qiydi, birov hordiq chiqarish uchun; birov o'qiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, ya'ni ―burch  yuzasidan. Birov bo'lak mashg'ulot bo'lmaganidan, vaqt o'tkazish uchun, birov nimanidir bilib olish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonlarning taqdiriga qiziqib o'qiydi. Shuning uchun, atrofimizga qarasangiz, har xil kitobxonni ko'rasiz: kimdir metroda, tiqilinchda kitobga tikilgan, kimdir navbatda turganda, birov xiyobonda, qosh qorayib qolgan bo'lsa ham kitob varag'idan ko'z uzolmaydi. Kimdir divanda chalqancha yotib, kimdir ish stolida jiddiy o'tirib, qo'liga qalam olib o'qimoqda... Kitobxonlar ham, o'qishlar ham har xil. Har kimning o'z o'qishi bor... O'qish  mehnat. Lekin mehnat degan bilan zavqsiz, hayajonsiz o'qish emas, albatta. Hassos kitobxon... kitobdagi ruhiy olamda yashaydi... Men tanlab o'qish yo'lini afzal ko'raman...

Ha, qayta o'qish -kitobxonlikda alohida bir soha. Bu o'qish degan zavqli mehnatning katta bir ma'noli qismi.

Darhaqiqat, kitob o'qishning o'zi bir san'at, san'at bo'lganda ham nihoyatda murakkab, serqirra, ayni chog'da maroqli va lazzatli san'at. Shu boisdan ham, hamma kitobxonda o'qish madaniyati shakllangan va rivoj topgan, deb bo'lmaydi. Ba'zi masalalar bo'yicha maslahat, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish mumkin, ammo baribir, Gyote aytganidek, o'qishni bir umr o'rganiladi... Chunki, har kimning o'z o'qishi bor.

Ammo bir umr kitob bilan bo'lgan, ko'p kitob o'qib, bilim mag'zini chaqqan donolarning hayotiy tajribasidan, mutaxassislar va kitobxonlar bilan bo'lgan muloqotlarda uqib olingan fikrlar, nihoyat, tibbiyot olami vakillarining bergan maslahatlaridan kelib chiqib ayrim mulohazalarni aytish mumkin. Dastavval shuni alohida ta'kidlash kerakki, kitobni tartib bilan, rejali o'qish kerak. Qo'lga tushgan kitobni shunchaki o'qish ekan-da,

deb o‘qiyverishdan foyda yo‘q. Kitobni tanlab, aniq maqsadni o‘ylagan holda o‘qish zarur. O‘z bilimingizni oshirish, biror muammoni o‘rganib chiqish, ma’naviy dunyoingizni boyitish uchun kitob o‘qishni o‘z oldingizga maqsad qilib qo‘ygan ekansiz, mutolaa dasturini aniq tuzib olish, unga qat’iy amal qilish kerak. Bu qoidalarni o‘zlashtirib olgan va unga amal qilgan kishinigina o‘qish madaniyatiga erishgan, deya olish mumkin.

Kitoblar olamida kerakli adabiyotni topish uchun bibliografik tavsiyanomalardan iborat qo‘llanmalar va boshqalar (adabiyotlar ko‘rsatkichi, kerakli asarlar ro‘yxati, kitob haqidagi suhbatlar, bilimdon kitobxonlar tavsiyalari, kitobxonlar klubi tashkil etish.Kitob paydo bo‘lgan paytdan boshlab hayot darsligi va  tadbirlar va boshqalar) ko‘mak bera oladi. Kitobni qanday o‘qishga kelganda, quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: ko‘chada ketaturib, o‘rinda yotgan holda, mashinada mutlaqo mutolaa qilish mumkin emas. Ovqatlanayotgan paytda mutolaa qilish qanchalik odobsizlik hisoblansa, kitobni qunt va diqqat bilan, o‘qiganini uqmasdan o‘qish ham shuncha befoyda. Shu boisdan ham kitob o‘qish san’atini chuqur bilib olish, unga amal qilish har bir kitobxonning burchidir.

Mutolaa madaniyati tarbiyasini dastavval oiladan boshlash kerak. Bolaga kitob bilan muomala qilish, kutubxonadan foydalanish, o‘qish san’ati, kitobxonlik va kitobsevarlik ko‘nikmasini, kitob ustida ishlashni o‘rgatish uchun ota-onalarning o‘zi o‘qish madaniyatidan ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lmog‘i lozim. Agar xonadonda zarur adabiyotlardan iborat kattami-kichik kutubxona bo‘lsa, ota-ona kitob bilan ishlashdan, bag‘oyat olijanob soha  kutubxonachilik qonun-qoidalaridan ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lsa, bunday oilada bola yoshlikdanoq kitob o‘qish madaniyatini egallab boradi.

Bolalarda kitob o‘qish madaniyatini shakllantira borishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham faol ish olib borib, ota-onalarga yaqindan yordam bersa, ayni muddao bo‘ladi. Chunki kichkintoylarda kitobga mehr uyg‘otishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining roli juda kattadir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv dasturiga kitob o'qish madaniyati mashg'ulotlarini kiritish zaruriyatga aylanmoqda. Bunday mashg'ulotlarda kitob chop etish bo'yicha mutaxassislar, yirik olimlar, kitobsevarlar, shuningdek, yozuvchi va shoirlarning kitob o'qish madaniyati haqidagi qiziqarli va mazmunli fikrlari bayon etilsa, shuningdek, axborot-kutubxona faoliyati yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi

Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql — qanotsiz qush", "Baxt belgisi — bilim", "Bilim — aql chirog'i", "Go'zallik — ilmu ma'rifatda", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar — oqar buloq, ilm — yonar chiroq", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol". Bunday purhikmat naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Eng muhimi, necha ming yillardan buyon sayqallanib, ne-ne avlodlarga yo'lchi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo'lishining muhim omili — bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, bolalarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Bu haqda so'z borganda, Istiqlol bizga ''kitobxon xalq'' degan azaliy yuksak mavqeimizni nafaqat qaytarib bergani, ayni chog'da, bu borada intellektual salohiyatimiz va imkoniyatlarimizni tubdan oshirishning asosiy omili ham bo'lganini ta'kidlash lozim. Binobarin, mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodkorlarning mehnatini munosib rag'batlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.Internet va boshqa vositalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong

va tafakkurini charxlash, ma’naviy olamini boyitish, ezgulikni targ‘ib etishda bosma kitobning o‘rni bundan keyin ham saqlanib qolaveradi. Binobarin, kitob asrlar davomida axborot saqlovchi eng samarali vosita vazifasini bajargan. Qolaversa, ming yil oldin Samarqand qog‘ozida bitilgan qo‘lyozmalar hozir ham insoniyatga ma’rifat nurini sochmoqda. Zero, kitob — qalb chirog‘i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan taralayotgan va elektron nashrdan topib bo‘lmaydigan o‘ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo‘jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko‘ngil cheksiz zavqqa to‘lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning huzur-halovati tamoman o‘zgachadir.

Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorliq yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’i nazar, barcha kitoblar milliy o‘zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.[18]

Barchamiz yoshligimizdan turli ertaklarni eshitib va o‘qib katta bo‘lganmiz. Bolaga yaxshi xislatlarni so‘z bilan singdirish juda yaxshi samara beradi. Shuning uchun farzand tug‘ilishi bilanoq unga alla aytiladi. Bolaga kechki uyqudan oldin turli ertaklar aytib, kitoblar o‘qib berish asnosida uning mutolaaga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Bola kitobni sevishi uchun ota-onasining mutolaaga mehri baland bo‘lishi lozim. Buning uchun uyda kitob ko‘p bo‘lsa, ayni muddao. Agar uyga kitob olib kelib, oilada o‘qilsa, farzandlar, albatta, bu an’anani davom etiradi. Kishi bolalikdan kitob o‘qishni odat qilmas ekan, keyinchalik ham kitobga qiziqishi qiyin. Shuning uchun, bizning vazifamiz bolalar qalbida unga mehr uyg‘otishdir.

Kitobxonlikni oilamizdan boshlashimiz kerak. O‘sib kelayotgan bolaning sog‘lom voyaga etishi va ma’naviy etuk bo‘lishida oilaviy muhit muhim o‘rin tutadi. Darhaqiqat, har bir ota-ona farzandi sog‘lom bo‘lib voyaga etishi, o‘qishi, hunar o‘rganishi, sport bilan

---

[18] Temur tuzuklari.: “Sharq"2002 y

shug‘ullanishi, ilm olishi uchun doimiy harakatda bo‘lmog‘i lozim. Komil farzandni tarbiyalash uchun hech qanday jihatni nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Unutmaylik sog‘lom bola ona Vatanning ishongan tayanchidir. Xonadonlarimizda farzandlarimiz zo‘r qiziqish bilan o‘qiydigan “O‘zbek xalq ertaklari”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari, “Odam va olam ensiklopediyasi”, “Bolalar ensiklopediyasi” va jahonga mashhur kitoblar o‘rin olsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bolaning aqliy rivojlanishi haqida qayg‘uradigan ota-ona unga albatta kitob o‘qib berishi kerak ekan.

Bolaga har kuni yotishdan oldin baland ovozda kitob o‘qib berilsa, uning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir etilar ekan.

## I-Bob yuzasidan xulosa

O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanishga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talabiga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi ro‘lini oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqodlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida bola shaxsiyatini, uning boshqalar bilan o‘zaro ijobiy munosabatini shakllantirish, axloqiy tasavvurlarni rivojlantirish, vatanparvarlik xissiyotlarini uyg‘otishga alohida e’tibor beriladi.

Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda

Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada mehnatga o‘rgatish,ularni estetik tarbiyasi ham muhim vazifalardandir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, ruhiy va axloqiy diniy tarbiyasi,ma’naviy yuksak qilib tarbiyalashning asosi bu bilimdadir.

Yosh avlodni bilimli, ma’rifatli va madaniyatli qilib tarbiyalash muommolari esa bevosita kitob va kitobxonlik masalalarining qay darajaga ko‘tarilgani bilan bog‘likdir.

Mutolaa madaniyati juda keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabièt bilan kengroq tanishib, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lish, shuningdek kitobdan to‘la ravishda foydala bilishda èrdam beruvchi ko‘nikmalardan iborat.

Kitobxonlik madaniyati kitobxonga o‘qiyotgan asarini to‘laqonli tushunish, undan badiiy-estetik zavq olish, yozuvchi fikri, asar g‘oyasini anglash va baholay olish, bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, ma’lumotnoma bibliografik apparatidan o‘zini qiziqtirgan yoki zarur masalalarga doir kitoblarni topib olish va undan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Kitob tanlash, uni tez o‘qish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya etish, avaylab saqlash ham kitobxonlik madaniyatining tarkibiy qismlariga kiradi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi juda keng ma’noda qo‘llaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma’lum tayèrgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki varaqlash va undan umumiy foydalana bilishdan to ijodiy o‘qish, kitob muallifiga oshno bo‘lib, uning asarini chuqur tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi. Ta’lim beruvchi vosita sifatida kishilarning iymonli bo‘lishi uchun xizmat qilib, yashash tarzining hayot kechirish qoidalarining qomusiga aylangan.

Kitob har bir insonning ayniqsa, bolalarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Zero, qadriyatlar orasida o‘qish, mutolaa va bilim olish alohida o‘rin tutadi.

Bugungi kunda butun dunyo axborot asrida yashamoqda. Chunki jahonda har kuni juda ko‘p miqdorda kitob bosilib chiqadi. Buning ustiga benihoya ko‘p jurnallar, to‘plamlar, gazetalar. Kino, teatr, radio, televizor va boshqa xilma-xil vositalar istasangistamasang axborot berib turadi. Chor -atrofni o‘rab turgan muhit ham katta

axborot vositasiga ega. Mana, shularning orasidan inson o‘ziga keraklisini ajratib olmog‘i lozim, bu esa mutolaa  o‘qish madaniyati qanday va qay darajada tarbiyalanganiga bog‘liq.

# II BOB MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

## 2.1 Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Kitobxon bolaga maqsadga muvofiq pedagogik yosh va o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini xisobga olishga tayanadi.Bir xil yoshdagi bolalar o‘qishida o‘ziga xos farqlanishlar mavjud.Biroq bolalikning xar bir davrida o‘qishning o‘ziga xos xususiyatlari,o‘qish sifatining o‘z yoshiga muvofiq munosabati namoyon bo‘ladi.Psixologik tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, bolaga kitob o‘qib berilganida unda:.so‘z boyligi oshadi;kitobga mehri paydo bo‘ladi;.muomulasi chiroyli bo‘ladi. Kitobda qanchalik mukammal so‘zlar mavjud bo‘lsa, kelajakda bolaga bu so‘zlarni o‘rganishi yanada oson bo‘lar ekan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa 5 daqiqa davomida bo‘lsa ham kitob o‘qib berish, uning ham aqliy rivojlanishi uchun juda foydali ekan. Yana bir tadqiqotning ko‘rsatishicha, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ko‘p kitob o‘qilsa, ularning chap miya yarimshari rivojlanar ekan. Bu degani, bolada suhbat qilish, tasavvur, tilga moyillik kabi xislatlar yuksaladi. Kitobni o‘qilishini ko‘p eshitgan bola buyum va so‘zlar orasida bog‘liqlikni ko‘p ko‘ra boshlaydi. Bu esa bolaning miyasini ilmiy, akademik yo‘nalishda rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Undan tashqari uyquga ketishdan oldin kitob o‘qilsa, bola

oson uyquga ketadi va tinch uxlaydi, ota-ona va bola orasidagi ruhiy munosabat yanada mustahkamlanadi. Bolaga qanday kitob tanlash lozim? Eng yaxshi kitob, bu klassik ertak va hikoyalardir. Lekin undan yaxshi tanlov, bola o‘zi qiziqqan kitobini o‘qib berish. Bola bilan kitob do‘konlariga tez-tez borib turish kerak. U erda bola o‘zi qiziqib tanlagan kitobini olib berib, unga o‘qib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bitta o‘yinchoqning narxiga ba’zida 10 dona kichik kitob sotib olsa bo‘ladi. Ota-ona pulni sifatsiz, keraksiz va ba’zida zararli plastikdan yasalgan o‘yinchoqqa emas, foydasi har tomonlama katta va qiziqarli kitobni olib berib, bolaning kelajagiga katta ijobiy xissa qo‘shgan bo‘ladi. Keyinchalik bola ham, o‘yinchoq do‘koniga emas, balki kitob do‘koniga borishni afzal ko‘rib qoladi. Shuning barobarida, ota-onalar o‘z farzandlarining kutubxonaga qatnashini rag‘batlantirishlari darkor. Kitob sovg‘a qilish an’anasini keng joriy qilish kerak. Hozirgi kunda yurtdoshlarimiz orasida bayram, to‘y va tug‘ilgan kunlarda kitob sovg‘a qilish ommalashib borayotgan bo‘lsa-da, ayrimlar haligacha kitob hadya etishdan or qiladi, uyaladi. Bugun kompyuter, televizor, uyali telyefonning ko‘pgina salbiy ta’siridan farzandlarimizni ajratib ololmaymiz. Demak yoshlarimiz butunlay texnika ta’siriga tushib qolmasliklari uchun yagona yo‘l – bu kitob hisoblanadi. Bolani fikrlashga, mushohada qilishga o‘rgatish bizning asosiy maqsadimiz.

Kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo‘lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo‘lgan qiziqish kitobsevarlarni kutubxona tomon chorlaydi. Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, ularning kitobxonligini oshirishda kutubxonaning roli ham katta.

Kutubxona – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitishga, kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatning oshishiga xizmat qiladi. Har bir inson kutubxonalar ma’naviyat xazinasidan, bu cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko‘proq foydalanishi, o‘zining, o‘zgalarning hayotini boyitishi mumkin. Millatning ma’naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan ajdodlarimiz erishgan betakror

yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish nafaqat bizni ma’nan yuksaltiradi, balki jahonni tanitadi, ezgulikka etaklaydi.

Bolalik — beg‘uborlik faslining oltin zinalaridan katta hayotga qadam qo‘yayotgan farzandlarimiz qo‘liga imkon qadar kitob tutqazaylik. Zero, ma’rifatli, ma’naviy boy va bilimli insonlargina yurtni obod qiladi. Ilm-fan va u orqali erishiladigan farovonlik bilan dunyoga tanilish esa bebahodir.

Barkamol avlodni voyaga etkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin,aynan mutoala insonga bilim va axborot beradi, uning ma’naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir. Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do‘st, eng zarur hamroh bo‘lgan kitob, insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar o‘tsada, o‘z o‘rnini hech nimaga bo‘shatib bermagan mo‘jizadir. Donolar kitob, kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta’kidlashadi. Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mehr qo‘ygan insonlarning jamiyatda o‘z o‘rni, odamlar orasida obro‘-etibori alohida bo‘ladi.

Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti deb ta’rif berganlarida, u inson ma’naviy olamini boyitishni nazarda tutganlar.Kitob Vatanga muhabbat yurtga sadoqat odamlarga mehr oqibat tuy’ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasida sifatida qadrlanadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatish bo‘yicha olib boriladigan ishlar D.B.El’konin tamonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillarga asoslanadi. Savodxonlikka o‘rgatishning bog‘cha yoshiga mo‘ljallangan shakl va metodlari D.B.El’konin metodi asosida L.E.Jurova tamonidan ishlab chiqilgan.Bolalar tamonidan savodxonlikni o‘rganishga hamda buning uchun eng optimal yosh davrini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotda N.S.Voronsova 5-6 yoshli bolalar savodxonlikni o‘rganishda tanlovchan tipdagi qabul qilish xususiyatiga ega ekanligini, 6-yoshdan esa o‘qishga e’tiborli bo‘lishini

aniqladi. Shundan kelib chiqib, N.S.Voronsova 5-yoshni tovushlarni analiz qilishga o‘rgatishning eng optimal davri,6 yoshni esa o‘qishga o‘rgatishning eng optimal(eng yaxshi va eng qulay)davr ekanligini ta’kidladi.

a

Bu davr bolalar kitobxonligi asosan ota –onalar va tarbiyachilar tamonidan amalg oshiriladi. Hali o‘qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar dunyosi sirlaridan butunlay behabar bo‘ladilar. Shunga qramay, kichkintoylar o‘zlarini qurshab olgan olamni tezroq bilib olishga,uni o‘rganishga intiladilar.Bunda otaonalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari va ularga badiiy asarlardan parchalar o‘qib berishlari lozim. Bu davr bolalariga o‘qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni soda bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirikyirik bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning katta ko‘pchiligini alla-qo‘shiq, ertak topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan yuqoridagi talablarga to‘la to‘kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga qo‘l keladi. Ammo shu narsani ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nuqtiga mos tilde, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Bolalar shoiri Anvar Obidjon o‘zining <Suhbat> degan she’rida bolalar yaxshi ko‘radigan g‘ozlar to‘g‘risida so‘z yuritadi. Ma’lumki, bolalar jonivorlar, xususan, qushlarga ilk yoshlardan boshlab qiziqadilar.

Umuman bolalarning yosh xususiyatlarini psixologiya fani o‘rganadi.Kutubxonashunoslik esa uning xulosalarga tayanib,bolalarning kitob o‘qishicha,ularning yosh xususiyatlarini qanday kitoblarni o‘qish o‘rganishga ta’sir etadi.

Katta maktabgacha yoshdagi guruhda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi.Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari,kulgili voqea va hodisalarni tasodiflarni ko‘proq eslab qoladilar.

a

Agar tarbiyachi kitobni ovozli o‘qib ularning diqqatini o‘qilgan narsaga tortib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar.Bu yoshdagi bolalar o‘yin orqali voqea va hodisalarni,kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko‘rgan, eshitgan,o‘qigan narsalardagi holatlarni,kishilarni,hayvonlarni ‘‘yaxshi’’ va ‘‘yomon’’ ga ajratadilar va ularga o‘z munosabatlarini bildiradilar.

Bu yoshdagi bolalarni o‘zlarini o‘rab turgan muhit,tabiat va undagi hayvonlar,o‘simliklar qiziqtiradi. Hali ular ilmiy bilim beruvchi kitoblar tabiat haqida tug‘ilgan savollarga javob berishini bilmaydilar.Shuning uchun ham ular o‘z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-hil savollarga ko‘mib tashlaydilar Endi ular voqea hodisalarga boshqacha ko‘z bilan qaraydilar,voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar.

‘‘Nima uchun qarochig‘i bo‘ladi’’ ,’’Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi’’,’’Nima uchun qor yog‘adi’’ va h.k, savollar bilan kattalarga murojat qiladilar.Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o‘sishida,o‘qitish va tarbiyalashda o‘ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishni talab etadi,

Kitobxonlar uchun kankret narsani obrazli fikrlash harakterlidir, o‘qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o‘sib boradi.Bu yoshda bolani kitobning yozilishi masalaning qo‘yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi.

Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish ular o‘qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim.Biz bu erda alohida kitobxonlarga ta’rif berdik xolos.

Bolalar o‘qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tamonlama o‘rganish lozim. Jamiyat taraqqiyotining nihoyatda ilgarilab ketishi, fan va texnika maorif va madaniyatning rivojlanish kishilar ma’naviy dunyosining yuksalishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida tehnik vositalardan-kino,televideniya,matbuot keng doirad bilim olishlari uchun imkoniyat yaratmoqda.

Kitobxonlarni o‘rganish, ularning qiziqish va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish tarbiyachining raxbarlik qilish sifatini oshiradi Bolalarni kitobxonlikga o‘rganish har xil usullarda olib borilsa ham quyidagi prinsiplarga asoslanadi.

Asosiy prinsiplardan biri-yosh kitobxonni o‘rganishni uning shaxsini o‘rganish bilan bog‘liq xolda olib borish.Avvalo tarbiyachi suhbat  kuzatish va boshqalar birgalikda kitobxon haqida to‘liq ma’lumot bera oladigan bo‘lishi lozim.Shunday qilib biz yosh kitobxonning qiziqishi va talablarini o‘rganish bilan birga uning o‘zini ham o‘rganamiz.Zero,kitobxonning qiziqishi,talabi uni o‘rab turgan muhit (oila,maktabgacha ta’lim muassasasi, o‘rtoqlari) bilan munosabati qo‘shib o‘rganishga, u haqda to‘liq ma’lumot beradi.

Ikkinchi prinsip,pedagogik va psixologik xususiyatlardan kelib chiqadigan fikrlar va xulosalar asosida yosh kitobxonni o‘rganish bilan birga uning qiziqishlarini tog‘ri yo’lga solib, yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Uchinchi prinsip shunga asoslanadiki, bolalar kitobini ilmiy va estetik jihatdan o‘rganish bilan uzviy alohida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga atalgan badiy,ilmiy, ommobop kitoblarni yaxshi bilish, uni pedagogik tomondan tahlil qila olish kerak.

Tarbiyachi bu kitoblarni o‘zining muloxozasi va xulosalari bilangina baholab qolmasdan,kitobxonning yosh xususiyati, saviyasi hamda nuqtai nazarini ham hisobga olishi lozim. Yosh kitobxonni o‘rganar ekanmiz yuqorida ko‘rsatilgan prinsiplarni birbiri bilan o‘zaro bog‘langan holda olib borish lozim.Shu prinsiplarni qo‘llashda, yuqorida ta’kidlanganidek,kitobxonning yosh xususiyatlari hisobga olish lozim.

Kitobning bolaga ta’sirini, u qaysi qahramon va hodisalarni eslab qolishni,kitobning mazmuni va yozilishiga bo‘lgan munosabatini, kitobdagi ilmiy bilim beruvchi materiallarni qanchalik o‘zlashtirib olganini o‘rganish mumkin.

Bu erda tarbiyachi o‘z oldiga yana ham aniq masalani qo‘yish, ya’ni bolalarning biron bir yozuvchining asariga bo‘lgan munosabatlarini janrdagi yoki mavzudagi (ertak, fantastika, urushlar) kitoblarni o‘qilishi va undagi materiallarning qabul qilishini aniqlash mumkin.

Bu tarbiyachi uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.

Jumladan tarbiyachi bolalarning kitobga beradigan o‘ziga xos baholarini munosabatlarini aniqlab olish bilan ularga eng qo‘l keladigan usul vositasida kitob tavsiya etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kuzatish usuli yordamida esa kutubxonachi yoki tarbiyachi kitobxonni kitob tanlayotganda,ommaviy ishlarda qatnashayotganda, kitob o‘qiyotganida ‘‘o‘quv xonasida’’ bevosita ishlanadi.Suhbat usuli orqali u kitobxon fikrini,bilishini,qobiliyatini, qiziqishini, so‘zlab berish mahoratini bilib oladi.

Bu usulning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.Birgalikda ko‘ndalang qilish usuli orqali biror dolzarb munosabati kuzatiladi.Bu ayniqsa kitob xaqida munozara bois o‘tkazilganda yorqin nomayon bo‘ladi.

Tarbiyachi o‘zlarining kundalik faoliyatlarida shunday usullardan foydalanadilarki, u bir vaqtda ham kitobxonni o‘rganadi,ham uning o‘qishga rahbarlik qiladi.

Tarbiyachi kitobxonlarni kitob tanlash,undagi rasmlarni ko‘rish yoki bolalarni kitobni bir-biriga tavsiya etayotgan paytda ular aytgan so‘zlarni bildirmasdan yozib oladi, bu ancha tabiiy chiqadi.Kitobxonlarning o‘qishini o‘rganishda va ular bilan yakka tartibda ishlashda eng samarali usullardan biri suhbatdir, bu kitobxonni va tarbiyachi o‘rtasidagi quruq savol va javob bo‘lmay, balki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasida kitoblar

haqida qiziqarli,maroqli fikr almashuv vositasidir. Odatda tarbiyachi quyidagi uch xildan foydalaniladi;

1. Bolaning kitobga qiziqishini tanishuv suhbati.
2. Tarbiyaviy suhbat.
3. O‘qilgan kitoblar haqida suhbat.

Katta guruh yoshdagi kitobxonlar bilan ishlaganda tarbiyachi yoki kitobxonchi v kutubxonachi bog‘cha hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan asarlarga ko‘proq e’tibor beradi.Ma’lumki bog‘chada turli xil hislatlarga ega bo‘lgan,ya’ni bebosh,beg‘am, tanbeh,to‘polonchi,intizomsiz bolalar ham o‘qiydi.

Bu bolalarning xulqi tufayli qanchadan-qancha oynalar, kitoblar,kiyimlar iflos bo‘ladi,Tarbiyachi katta guruhdagi bolalarga ya’ni bilimlarni bilish va o‘zlashtirish lozim bolgan to‘g‘riso‘zlik,adolatlilik, halollik, sahiylik kabi hislatlarni kitobdan qiziqarli hikoya, ertaklarda ularning qalbiga singdirib berish lozim.Ushbu yo’nalishning harakteri hususiyati shundaki, juda ko‘p bolalar yuqoridagi aytilgan hislatlarning aksi o‘zlarida ham mavjud ekanligini lekin ularga tushuntirib berish darkor.

Yosh kitobxonlar ko‘pincha begona kishi oldida uyalib gapirishga iymanadilar, shuning uchun ham bu yoshda ota-onalar tarbiyachilar ishtirok etsalar bolalar haqida bilimlarga ega bo‘lib oladilar.Bola bilan suhbat boshlanganda uni qiynayotgan har xil savollar berilsa, bola hadiksiraydi, shuning uchun ham savollar qisqa lo‘nda va qiziqarli bo‘lishi bilan bolaning o‘zini ko‘pro q gapirishga imkoniyat yaratadigan bo‘lish kerak. Buni nazarda tutib kutubxonaga kitobxon bilan suhbatini,kitobda nimalar bayon qilingan ekan?’’ degan umumiy savoldan emas,balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so‘rashdan boshlaydi va asta-sekin undan kitobni qanchalik tushunganini bilib oladi. Zarur bo‘lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qaxramon xarakterini tushunishga yordam beradi,muhimi epizodni kitobxon bilan birgalikda o‘qiydi, berilgan rasmlarni ko‘rib chiqadi kitobxonga asar g‘oyasini tushuntirishga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi.

Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan,kitobxonlarga mustaqil ravishda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi.Shuning uchun bog‘cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotenalari rasman bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Kitobxonning yosh xususiyatida katta farq bo‘lgani ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi.

Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri,qiziqish mavjud bo‘lib,tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim.Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlashni va ularga yordam berish lozim.

Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan,uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbatiga bog‘liq.

Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o‘tish lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi.

Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda unga shu kitobning boshidan ozgina o‘qib berib, kitob qahramonini xarakterlab beradi.Ertaklarda ko‘rsatilgan rasmlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda rasmlarning hammasini birdan ko‘rsatish maqsadga muvofiq emas.Rasmlarni bolaning hayajonini kuzatgan holda asta-sekin ko‘rsatish kerak.1-2 ta asosiy rasmlarni ko‘rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga,voqealarga,qahramonlarning harakteriga qiziqib qoladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ba’diy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos boladi:

-Qahramonlarga qayg‘urish va ularga hamdard bo‘lish,shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emotsionallikning pasayishi;

-Voqealar zanjirini tiklash va asar ichida xamda asarlar o‘rtasida turli hil mazmunli aloqalar o‘rnatish qobiliyati;

-Qahramonlarning tashqi harakatlarini ko‘rish va qahramonlar hulq-atvoridagi ochiq mativlarni tushinish,ularning yashirin niyatlari manosiga va xarakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;

-Hosil bo‘lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko‘proq ertakka o‘xshash bo‘lishi uchun va adabiy vaziyatni talqin qilish va o‘zgartirishga urinish;

-Janr asosi(ertak,xikoya,she’r) va maqbul mavzularning (hayvonlar,sehrgarlik ko‘rinishlari,bolalar va boshqa) paydo bo‘lishi;

-Tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo‘lishi;

- Ba’diy asarlarning harakterli tuzilmasi va shakli xaqidagi ta’savurlarni o‘z ijodida ifodalash(kompozitsiyalarning uch qismliligi adabiy qahramonlarning asosiy xarakatlari va boshqa).

Besh-yetti yoshdagi bolalarning o‘ziga xos hususiyatlari- bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo‘lgan uyg‘unligidan iborat.Bir tomondan- bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar.Ikkinchi tomondan-besh-yetti yoshli bolalarning taqlikchanlikka,meyoriylikka intilishi hammaga yaxshi malum.Bola qoidalarini,harakat usullarini oz’lashtirishga intiladi va u bunga qodirdir.

## 2.2 Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda texnologiyalardan foydalanish

Tadqiqot muammosi bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish, bizning fikrimizcha, bolalarda kitob madaniyatining eng samarali shakllanishiga yordam beradigan sharoitlarni nazariy jihatdan asoslashga imkon berdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasining samaradorligi quyidagi shartlarning bajarilishi bilan ta’minlanadi:

1) maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasiga yordam beradigan nutqni rivojlantirish muhitini yaratish;

2) maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirishda texnologiyalardan foydalanishda tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish;

3) maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda tarbiyachilarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasiga yordam beradigan nutqni rivojlantirish muhiti, nutqni rivojlantirish muhiti bolaning nutq faoliyatining moddiy obyektlari tizimi va u bilan sheriklik tizimidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola kattalar va tengdoshlari bilan muloqot va nutqni rivojlantirish bo‘yicha tajribaga ega. Bunday tajribaga ega bo‘lish imkoniyati barcha bolalarning faol, kognitiv, ijodiy va o‘yin faolligini o‘z ichiga oladigan to‘laqonli nutq muhiti yaratilgan taqdirda kengayadi. Nutqni rivojlantirish muhiti moddiy va ma’naviy qismlardan iborat. Moddiy tarkibiy qism quyidagilarni o‘z ichiga oladi: nutq faoliyati markazi va uning mazmuni (nutq o‘yinlari, kitoblar, ertaklarga asoslangan rolli o‘yinlarning kartotekasi va boshqalar), ma’naviy tarkibiy qism tarbiyachilarning nutqini (to‘g‘ri, vakolatli, ideal), nutqning shaxsiy xususiyatlarini ( tembr, temp, intonatsiya),

boshqalar bilan muloqotning tabiati (kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish qoidalari).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasida tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish. Kasbiy mahoratni oshirish - bolalarning yangi pedagogik qadriyatlarni (pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishga hissa qo‘shadigan g‘oyalar va konpetensiyalarni) va texnologiyalarni, shu jumladan o‘rganish, tushunish, ijodiy ishlov berish va o‘quv amaliyotiga turli xil yangiliklarni tatbiq etishga yo’naltirilgan faoliyati. Uzluksiz ta’limning maqsadi - pedagogik jarayonni optimallashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi va doimiy ravishda takomillashtirish (Y.K. Babanskiy, P.I. Kartashov, M.M. Potashnik va boshqalar). Tarbiyachining kitob madaniyatini shakllantirishdagi kasbiy vakolatiga kasbiy bilim va pedagogik mahorat kiradi. Bunga quyidagilar kiradi: bolalar nutqini rivojlantirishning shaxsiy usullarini bilish, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga individual yondashish, kitob madaniyatini shakllantirishda bolalarni ijtimoilashuvini ta’minlash.

Texnologiya— biror ishda, ma\oratda, san’atda kullaniladigan usullar, yullar yigindisi. Texnologiya — ishlov berish , ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yigindisi. Pedagogik texnologiya — o‘qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yigindisi va joylashuvini belgilovchi psixologik tartiblarlar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy- uslubiy vositalaridan iborat.

Pedagogik texnologiya — o‘qituvchi mahoratga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyhasidir. {V.P. Bespalko.) Pedagogik texnologiya — ta’limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini bolalarda kitobxonlik Ushbu sharoitlar maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha ota-onalar bilan olib borilgan ish ota-onalarning takroriy so‘rovnomalari orqali amalga oshirildi .Bolalarning kitob madaniyatini Maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan o‘zaro aloqada shakllantirishda ota-onalarning ko‘nikmalari yaxshilanganligi aniqlandi. Kitob madaniyati darajasini o‘rganish uchun quyidagi shartlardan foydalanilgan: - nutqni rivojlantirish muhitini o‘rganish ; Ertaklar uchun syujet-rolli o‘yinlar, syujet rasmlari, didaktik o‘yinlar to‘plamlari, bolalar uchun kitoblar kutubxonasi bilan ifodalangan rivojlanish nutq muhiti. - tarbiyachilarning kasbiy mahorati - ota-onalar bilan ishlash .Shartlar amalga oshirilgach, quyidagi shakllardan foydalanildi - nutqni

madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha ish shakllari.



rivojlantirish muhitini to‘ldirish (ertaklarga asoslangan rolli o‘yinlar, hikoya rasmlari bilan didaktik o‘yinlar); - pedagogik vakolatlar (davra suhbati, ma’lumot stendi); - otaonalar bilan ishlash (anketa, rolli o‘yinlarning karta indeksini ishlab chiqish, konferensiyalar, davra suhbatlari, munozaralar, ko‘rgazmalar, "Pochta qutisi", bukletlar va boshqalar).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini va usullarini ishlab chiqish muhimdir.

Inson har tomonlama rivojlangan yaxshi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Har bir bola o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, yurish -turishi, qobiliyati va imkoniyatlarining hammasini uning ota – onasigina ko‘proq biladi. Shuning uchun bolaning kitobni to‘g‘ri tanlay olish va undan o‘rinni foydalanishda tarbiyachi va ota – onaning o‘rni katta.

Bundan tashqari, tavsiya etiladigan kitoblar bolaning yoshi, psixikasi, tushunish qobiliyatiga mos qilish maqsadga muvofiq. Shuni e’tiborga olish kerakki maktabgacha yoshdagi bolalarga ifodali o‘qishni tashkil etishda xalq og‘zaki ijodi na’munalari – ertaklari, hikoyalarga keng o‘rin ajratish kerak. Bunday asarlar sirli tomonlari bilan yosh kitobxonlarni o‘ziga tortadi va ular tarbiyachiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki xalqning nodir ijod namunalari o‘zining teran xalqchilligi tilining jozibadorligi va yuksak badiiyligi bilan maroqlidir. Zotan ularda xalqning orzu – umidlari, qahramonligi, vatanparvarlik kitobga mehr –uyg‘otish tuyg‘ulari aks etgan bo‘ladi. Masalan savol – javob qilganda bolalar quyidagi savollarga javob beradilar. Qanday ertaklarni o‘qib, eshitgansiz va nimaga bu ertaklar yoqadi. Bulbulgo‘yo, “Badal qaroqchi”, “Uch og‘ayni botirlar”, “Sehrli olma” va boshqa ertaklarni sevib eshitishlarini aytishdi. Yuqorida sanab o‘tilganlarda ta’sirchan, tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat ulkan sahnalar voqealar, xulosalar bo‘rttirib, takror e’tibor va urg‘u berib, alohida o‘tish tavsiya etiladi.

Yana bolalarga savol bilan murojaat qildik. Qaysi qahramonlarni yoqtirasiz? Nima uchun? Shunda bolajonlar “Oyg‘ul bilan Baxtiyor” ertagida, qahramon, Zumrad va Qimmatdagi, Zumrad qizning qahramoni bolajonlarga ma’qul ekan. Bolalarning

qiziqishlariga qarab, ertak hikoyalar qilib beriladi. Ifodali o‘qib yoki hikoya qilib beradigan kishi tanlangan kitob, hikoya, she’rni avvalo bir yoki ikkinchi marta o‘qib chiqish, qiziqarli rasmlarga e’tibor berishi lozim. Bola bilan suhbat boshlanganda uni qiynayotgan har xil savollar berilsa, bola hodiksiraydi, shuning uchun ham savollar qisqa lo‘nda va qiziqarli bo‘lish bilan bolaning o‘zini ko‘proq gapirishga imkoniyat yaratadigan bo‘lish kerak.

Kitobxonlarni o‘qishga rahbarlik qilishda tavsiyaviy va o‘qilgan kitoblar haqidagi suhbat katta ahamiyatga ega. Tavsiyaviy suhbat bolaga kitob tanlashda yordam berishni, kitobga qiziqish uyg‘otishni, o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi. Tarbiyachi iloji boricha har qanday so‘roqqa javobi tavsiya suhbati o‘tkaziladi, kitobxonga mos keladigan kitoblarni tavsiya etadi. Bunda albatta xonadagi turli tavsiyaviy vositalar, kitob ko‘rgazmalari, rasmli kartotekalardan foydalanib kitobxon diqqatini jalb etadi va qiziqiarli so‘zlab berish orqali ularni kitobga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Tavsiyaviy suhbatning qimmati shundaki u kitobxonni tartibli ravishda ko‘proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi. Tarbiyachi kitobxon bilan kitob almashtirayotganda davra suhbati bilan quyidagi foidalarga amal qiladi;

1. Suhbat kitobxon qiziqishga ma’noli bo‘lish kerak, agar shunday bo‘lmasa, kitob tavsiyasi va tarbiyachining maslahati zo‘rma- zo‘raki g‘amxo‘rligi keraksiz bo‘lib qoladi.

2. Suhbat doimo bir maqsadga qaratilgan, bo‘lib kitobxonning qobiliyatini takomillashtirishga yordam berish lozim.

3.Bolani suhbatlashishga majbur qilmasdan unda suhbatlashishiga moyillik uyg‘otish kerak.

4. Tavsiya etilayotgan materialning to‘liq mazmunini aytib bermaslik lozim, unda kitobxonning materialga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi.

5. Tavsiya etilayotgan materialning qisqa ifodalik, qiziqarli qilib bayon etilishi kitobga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

6. Kitob haqida suhbatlashayotganda kiobni ko‘rsatish, uning muallifi, rasmlari ba’zi joylarida o‘qib berish ham mumkin bu esa suhbatini jonli o‘tishiga yordam beradi. Ko‘pgina maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli kitoblar berishini so‘raydilar. Tarbiyachi haqiqiy qiziqarli narsalar haqida u bilan birgalikda eslaydi, shundan so‘ng qiziqishiga asoslanib, unga mos keladigan kitobni tavsiya etadi. Buni nazarda tutib kutubxonaga kitobxon bilan suhbatini, kitobda nimalar bayon qilingan ekan? “degan umumiy savoldan emas, balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so‘rashdan boshlaydi va asta –sekin undan kitobni qanchalik tushunchanini bilib oladi. Zarur bo‘lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qahramon xarakterini tushunishiga yordam beradi, muhimi epizodni kitobxon bilan birgalikda o‘qiydi, berilgan rasmlarni ko‘rib chiqadi kitobxonga asar g‘oyasini tushuntiriga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi.

Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan, kitobxonlarga mustaqil ravishda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi. Shuning uchun bog‘cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotekalari rasman bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.Kitobxonlarning yosh xususiyatida katta farq bo‘lgani kabi ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi. Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqish mavjud bo‘lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlami va ularga yordam berish zarur. Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim.Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbati bog‘liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o‘tishi lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kitob tanlashda kutubxonachiga yoki tarbiyachiga muhtojdilar. Shuning uchun ham kutubxonani yoki tarbiyachi kitob tavsiyasining eng yaxshi usuli – suhbatdan foydalaniladi.

Tavsiyaviy suhbat o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

- bolaga kitob tanlashga yordam belish;
- kitobga nisbatan qiziqishni uyg‘otish bolaning kitobga juda ham qiziqishi kitobni oxirigacha yakunlashni yordam beradi;
- o‘qishga qo‘llanma berishdan iboratdir.

Tavsiyaviy suhbatda so‘ralgan kitob xarakteriga, ya’ni so‘roq motiviga bog‘liq holda har xil tuziladi.

Suhbat davomida bolalarga yoqqan yoki yoqishi mumkin bo‘lgan bir necha kitoblarni ko‘rsatadi, ular qiziqtira oladigan jihatlarni aytib beradi.

Masalan mehr oqibat tuyg‘usini shakllantiruvchi “Yoriltosh ertagini bilasizmi?”. Bu kitob etim qizlar Gulnora va Oymomo haqida. Gulnora juda chiroyli, chaqqon, mehribon, ishlab charchamaydigan qiz bo‘ladi.

Uning onasi vafot etganidan keyin otasi begona ayolga uylanadi. Ayol juda badjahil yolg‘on bo‘ladi. Gulnora singlisini o‘padi-da zor – zor yig‘lab qochib ketadi. Uni quvlab kelayotganlar etay deganda tog‘dagi tosh yorilib Gulnora uning uchiga kirib ketadi. Quvlaganlarning hammasi kirib yoriltosh desa ham tosh yorilmaydi. Lekin hech kim yo‘g‘ida singlisi kelib yoriltosh desa u ochiladi, nimaga shunday bo‘lganini kitobni o‘qisalaring bilib olasizlar deb kitobxonni qiziqtirib kitoblar tavsiya etiladi.

Shu bilan bir vaqtda kutubxonaga yoki tarbiyachi bolaning diqqatini tortadi, ularga o‘zlari qanday qilib ko‘rgazmadagi qiziq kitoblarni topishlari kerakligini tushuntirishi kerak. Kitobxon bir mavzu bo‘yicha kitobning muallifi va nomini bilmagan holda kitob so‘raganda ham tavsiyaviy suhbat o‘tkazish kerak.

Tarbiyachi bolaga “O‘rtoq uylari” kitobini tavsiya etadi.
“Bu kitobda sen qanday qilib qoldirg‘ach o‘z uyini yo‘qotib qo‘yganini u qanday qo‘shnilarning uylariga borganini bilib olasan, qorong‘i tushadi hamma qushlar unga yotib qolishni taklif etishadi, lekin qoldirg‘och ko‘nmaydi, u o‘zining uyini qidiradi.

O‘qiganingda nima uchun qoldirg‘och hech kishnishida yotgani unamaginingni o‘ylab ko‘r?”.

Kitobxon nomi aniq bo‘lgan kitobni so‘raganda ham tavsiyaviy suhbat zarur.
Bu yoshdagi bolalarga kitobdagi alohida epizodlar, atamalar qiyinchilik tug‘dirishini kutubxonachi o‘z tajribasidan biladi. Bunday holda kutubxonachi yoki tarbiyachi bola nima uchun shu kitobni tanlayotganini, kitobni o‘zi o‘qiydimi yoki kattalar bilanmi?

Shularni bilib oladi va bolani qiziqtirayotgan kitobni unga beradi.
Ko‘pgina bolalar tabiat haqida kitoblarni yaxshi ko‘radilar. Shuning uchun tarbiyachi tabiatning jami va jonsizga bo‘linishini, o‘simliklar, hayvonlar va odamlar, ozuqlanishi, nafas olishi, o‘sish ko‘payishini va bular jonni tabiat quyon, oy, yulduzlar, toshlar jonsiz tabiat jonligini tushuntiradi.

Yerda eng qudratlisi inson ekanini, u tabiatni o‘zgartirib turishiga qodirligi haqida so‘zlab berib, kitobni o‘qiganingda shunga e’tibor bergan deb tayinlanadi. Bu erda kitobxonning qiziqishini uyg‘otadigan savollar juda muhim. Masalan “Qurbaqa foydali jonivorli yoki zararli? U qishda qayerda yashaydi?” Itbaliq katta bo‘lsa baliq bo‘ladimi, qurbaqa? “nimaga shunday. Ayrim hollarda kitobxonlar mashg‘ulot jarayonida olgan bilimlarini to‘ldiruvchi kitoblarni tavsiya qilish bilan birga kitobxonda har qanday savollarga javob beruvchi kitoblarni topish mumkinligini ko‘rsatuvchi bo‘lishi kerak. Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda u shu kitobning boshdan ozgina o‘qib berib, kitob qahramonini harakterlab beradi. Ertaklarda ko‘rsatilgan rasmlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda rasmlarning hammasini birdan ko‘rsatish maqsadga muvofiq mas. Rasmlar bolaning hayajonini kuzatgan holda asta – sekin ko‘rsatish kerak. Asosiy rasmlarni ko‘rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga, voqealarga, qahramonlarning harakteriga qiziqib qoladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga kitob tavsiya qilayotganda rasm ko‘rsatish usuli ayniqsa muhimdir. Ular o‘quv texnikasini yaxshi bilishmaydi, kitobdagi rasmlar ularni shu kitobga qiziqtiruvchi asosiy kuch bo‘lib hisoblanadi.

Tavsiya suhbati kitobxonni rasmni va matini chuqur qabul qilishga tayyorlaydi. Suhbat davomida bolaga kitobga chizilgan rasmni, kitob muallifining va rassomning familyasini voqea sodir bo‘lgan vaqti va joyini ko‘rsatib, kitobxon diqqatini kitobning asosiy tomonlariga tortadi. Tarbiyachi: “Mehmonga bergan yaxshi kitobda chizilgan rasmdagi mezonlarning iltifotlarini, bolaga hamma narsa muhoyyo qilib qo‘yilganligini, uni maza qilib konfet eyayotganligini hozil mutoyiba bilan so‘zlab berish bolalarda kitobga va rassomga mehr uyg‘otadi. Kitobxon bilan bo‘ladigan suhbat bolaning diqqatini asarning asosiy g‘oyasigagina qaratib qolmasdan undan  obrazdagi ushbu g‘oyaning mazmunini to‘liqroq ochib berishga yordam berishini tushuntirib o‘tishi lozim.

Chunki A.S.Pushkinning “Baliqchi va baliq haqidagi ertak” asaridagi voqealarning rivojlanishi natijasida dengiz to‘lqini va rangi o‘zgarib turishi bilan farqlanadi. Masalan “Birinchi marta chol oltin baliqni so‘rab kelganda dengiz qanday ahvolda edi “Chol 2 – 3 marta kelganda esa dengiz qanday bo‘lib qoldi?

Bu savollarga bolaning ertakning g‘oyaviy mazmunini to‘g‘ri tushunishiga, xasis kampirning talabi bilan dengizning to‘lqinlanishi o‘zgarib turganini tasavvur qilishiga yordam beradi. Bolalar asardagi badiiy detallarni esda yaxshi saqlab qoladilar. Asarni eslatishga va detallarni oydinlashtirishga qaratilgan savollar bolalarning asar mazmunini to‘liq eslab qolishlariga yordam beradi. Ularning kuzatuvchanligini o‘stiradi va so‘zga mehr uyg‘otadi. Ayrim paytda badiiy adabiyotlar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat davomida savollarga kitobxonning faktik tomonlarini qanday o‘zlashtirganligini, u kitobni oxirigacha o‘qigan yoki o‘qmaganligini, uning mazmunini tushungan yoki tushunmaganligi kabilar bilib oladi. Bu kabi savollar o‘qiganlarini yaxshi tushuna olmaydigan, kitobni oxirigacha o‘qimaydigan o‘quvchilar yoki bolalar bilan suhbat o‘tkazilganda qo‘llaniladi. Bunda tarbiyachi bolaning o‘qiganlarini, asardagi yorqin epizodlarni yodga olishiga harakat

qiladi. Bu usul, bola kitobni topshirayotgan paytda kitobning qaysi joylarda ko‘proq yoqib qolgani haqida gappirgan vaqtda qo‘llaniladi. Bu esa kitobning qiziq – qiziq joylarini qayta o‘qib chiqishga havas uyg‘otadi. Bolalarning ma’lum asardagi qahramonlar va voqealarni tasvirlab chizgan rasmlari ham shu kitobning mazmunini esda yaxshi saqlab qolishda katta yordam beradi. Ko‘pincha tarbiyachilar odatdagi savollar bilan, birga shu kitob qanday rasm chizish haqida ham uylab ko‘rishni taklif qiladilar. Kitob bilan ommaviy ish olib borilganda, bolalarni vatanimiz va boshqa mamlakatlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy – siyosiy voqealar va hodisalar, tabiatda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar bilan tanishtiriladi.

Ovozli o‘qish va so‘zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo‘lib, undan oilada ham keng foydalaniladi. Imkoni boricha o‘qish har kuni va doimiy ravishda olib borilishi lozim. Avvalo ota – onalar o‘qib berilsa, so‘ngra bu ishni bolalarning o‘ziga topshirishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi” degan edi. Ovozli o‘qish va so‘zlab berish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muhim o‘rin egallaydi. Ular ham o‘qish texnikasini yaxshi egallamagan bo‘ladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar birinchi – ikkinchi yilda o‘qishga qiynalishlari sababli o‘qishdan ko‘ra eshitishni yaxshi ko‘radilar. Bundan tashqari, bolalar o‘qishgagina emas, diqqat bilan eshitishga ham, eshitganlarini o‘zlashtirishga va aytib berishga ham o‘rganishlari kerak. Ovozli o‘qishga yoki so‘zlab berishga xalq ertaklari juda qiziq manba bo‘lib xizmat qiladi. Har xil fantastik sehrli ertaklarni so‘zlab berish maqsadga muvofiq. Aniq va yorug‘ obrazli kichik, qiziqarli ma’nodor ertaklar bolalarni atroflarini o‘rab turgan dunyo bilan tanishtiradi. Ularning ko‘pgina savollarga javob beradi. Xalq ertaklariga xos bo‘lgan xususiyat haqiqatni yomonini, rostni yolg‘on ustidan g‘alaba qilish xususiyati bolalarda haqgo‘ylikni tarbiyalaydi. Natijalar ertaklar bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otadi. Ammo hamma xalq ertaklari ham bolalarga to‘g‘ri qilavermaydi. Ertak tanlayotganda bolalarning yosh xususiyatiga, ertakning g‘oyasi va mazmuniga e’tibor berish kerak.Maktabgacha yoshdagi kitobxonlikka mehr uyg‘otish yana bir usuli so‘zlab berishdir. So‘zlab berish asar tanlangandan so‘ng birinchi marta o‘qib, hamma tomoniga e’tibor berish kerak. Uning

mazunini bilan shunday tanishishi va eshituvchilarga ham hikoyaga asardan qanday ta’sirlangan bo‘lsa, shunday ta’sirlanishlari kerak. Shundagina kitobdagi hamma narsalar eshituvchilarning esida qoladi, ular holatlarini hatto so‘zma – so‘z bilib olishadi. So‘zlab berishda ma’noga amal qilish lozim. Chunki so‘zlab berishda juda buzib yuborish kitobxonlarni zeriktiradi.Bolajonlarga esa mashg‘ulotlar jarayonida kitobga mehr uyg‘otishni maqsad qilib oldik. Va ko‘zlangan maqsadimizga erishdik. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga kitobxonlikka mehr uyg‘otish, tarbiyachi va ota

–onalarga bog‘liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilishi muhimdir:

- Loyiha faoliyatini amalga oshirish,
- tuman bolalar kutubxonasi va maktab kutubxonalari bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish,
- maktabgacha ta’lim tashkilotida nutqiy kitob mutolasi muhitini yaratish.

**“Jajji kitobxon”**

Loyihaning maqsadlari:

-mavzu bo‘yicha eng yaxshi pedagogik tajribani, pedagogik adabiyotlarni, onlayn manbalarni o‘rganish;

- bolalar bilan ishlash usullari va usullarini yangilash orqali o‘quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o‘zaro ta’sirida bolalarni kitob bilan tanishtirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish;

O‘qishga qiziqish va muhabbatni uyg‘otish, bolalar kitoblarini o‘qishga qiziqishni rivojlantirish;

- oilaning o‘qish savodxonligini oshirish, uyda o‘qish an’anasini tiklash;

-bolalarda o‘qish savodxonligini shakllantirish bo‘yicha an’anaviy pedagogik usullar va ish shakllarini yangilash va joriy etish;
-tarbiyachining pedagog-psixolog, musiqa rahbari, shuningdek maktab kutubxonasi xodimlari bilan o‘zaro munosabati orqali o‘quv jarayonini integratsiyalashning amaliy imkoniyatlarini kengaytirish.

Kutilayotgan natijalar:
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha maqsadli, tizimli ish olib borish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini kengaytirish va boyitish, "tarbiyalanuvchi bilan muloqat" ni kengaytirish, bolalarning nutqi va intellektual darajasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

• oilada o‘qish madaniyatining tiklanishi;

• adabiy fikrni tushunishga, anglashga va takrorlashga qodir bo‘lgan faol kommunikativ shaxsni shakllantirish.

Bu loyihani amalga oshirishda ota-onalar bilan birgalikda ishni tashkil etish muhimdir.

Loyihaning maqsadi:

• tarbiyalanuvchilarni adabiy meros, tanlov mavzusiga ko‘ra eng yaxshi she’riyat va nasr namunalari bilan tanishtirish;

• tarbiyalanuvchilar orasida eng iqtidorlilarini aniqlash, ularga o‘z fikrlarini bayon qilish imkoniyatini berish;

• badiiy adabiyotni ifodali o‘qishga qiziqishni oshirish.

«Eng yaxshi kitobxon” tanlovining mavzusi tematik rejalashtirishga muvofiq tanlanadi. Guruhdagi har bir musobaqada bolalar bilan tarbiyachilar oldindan kitoblar va bolalar asarlari ko‘rgazmasini tashkil qiladilar. Shunday qilib, har bir bolaga  qahramonga o‘z munosabatini rasm orqali ifoda etish imkoniyati beriladi.

Musobaqalar maktabgacha ta’lim tashkiloti, tuman kutubxonasi xodimlari va otaonalardan iborat mustaqil hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Bunday tadbirlar bolalarni ijtimoiylashishiga yordam beradi, muloqot chegaralarini kengaytiradi, shuningdek umumiy ishda qatnashishdan xursand bo‘ladi.

Kitobxonlik musobaqalari bolaning hayotidagi yorqin lahzadir, uning taassurotlarini boyitadi va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Ular har tomonlama rivojlanishga hissa qo‘shadi, san’atning har xil turlarini tanitadi, quvnoq his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, kayfiyat va hayotiylikni ko‘taradi.

**"She’rlar dunyosi" kitobxonlik tanlovi**

Loyihamizni amalga oshirishda ushbu texnologiyadan foydalanish nutqni, nutqiy aloqani va muloqotni rivojlantirishga imkon beradi.

Shu munosabat bilan biz  "Buvimning ertaklari", "Do‘stlarimizning kitoblari", "Do‘st - oila" mavzularida to‘garak mashg‘ulotlari o‘tkaziladi, bu erda  bolalar kitoblar va ularning belgilarini batafsilroq bilishadi va mustaqil ravishda shug‘ullanishlari mumkin. Asosiysi, bolaning tashabbusi, uning xohishi, ijodkorligi va tasavvuridir. Yengil, erkin shaklda shaxsni, uning imkoniyatlarini ochib berish jarayoni sodir bo‘ladi.

Bolalarning kitobga  bo‘lgan ehtiyojini uyg‘otish uchun oila bilan o‘zaro aloqada bo‘lish kerak Buning uchun  maktabgacha ta’lim tashkilotlarida an’anaviy va noan’anaviy ish turlaridan foydalaniladi.

Bolalarni kitob  bilan tanishtirishning shakllaridan biri "O‘z qo‘llarimiz bilan kitoblar yasaymiz" ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish bo‘lib, unda bolalar ota-onalari bilan birgalikda

"Mening sevimli ertagim", "Biz hikoyachilar va rassomlarmiz" mavzularida kitoblar tayyorlaydilar.

Ushbu shakl bolalarni va ularning ota-onalarini kitob bilan qiziqtirishga, izlanish muhitini yaratishga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlari chegaralarini kengaytirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi ota-onalar va bolalar ijodiyoti bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilishda ko‘rgazmaning tematik yo‘nalishini kitob bilan bog‘lashga harakat qilamiz (masalan, ko‘plab maktabgacha yoshdagi guruhlarda an’anaviy kuzgi yarmarkada guruhning muhiti nafaqat ota-onalar va bolalar ijodiyoti ko‘rgazmalari bilan bezatilishi mumkin ). Kuz mavzusida ma’lumotli kitoblar - vitaminlar, kuzning sovg‘alari, ma’lumot sahifasi va ota-onalar farzandlari bilan birgalikda tayyorlangan rasmlar).

Har bir guruhda ota-onalar uchun "Biz uyda o‘qiymiz" burchaklari yaratildi, bu erda ota-onalar uyda oilaviy o‘qish uchun kitob olib, farzandlari bilan o‘yda o‘qishlari mumkin.

Eng kichik maktabgacha yoshdan boshlab, ota-onalar bilan adabiy dam olishni tashkil etish har bir ota-onaga bolalarga o‘zlarining sevimli adabiy asarlarini o‘rganish uchun qo‘shma faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi va bolalarda ham, kattalarda ham ijodkorlik va ifodali o‘qish va hikoya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Bolalarni adabiy asarlar bilan tanishtirishda bolalarning sahnalashtirish faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek tarbiyalanuvchilarga kitob mutolasi bo‘yicha onlayn-uchrashuvlar tashkil etish mumkin. Bunda har bir ota-ona bolalarning o‘qish masalalari bo‘yicha malakali yordam va ekspert maslahatlarini olishlari, rasmiy veb-saytda Internet orqali on-layn savollariga javob olishlari mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda turli xil loyihalardan foydalanish ijobiy natijalarni beradi: •bolalar bilan ishlash usullari va shakllarini yangilash, an’analarni rivojlantirish;

• maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish;

-guruhda badiiy-adabiy muhitini yaratish;- guruhlarda mini-kutubxonani yaratish;
- oila bilan hamkorlikning yangi shakllarini joriy etish;- ota-onalarda oilada farzandlar bilan birga o‘qish madaniyatini tiklash;-tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish.

## Ikkinchi bob yuzasidan xulosa.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining mazmuni, metod, usullari va ish shakllari yoritib berilgan.

Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasida maqsadga muvofiq pedagogik yosh va o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini xisobga olish muhimdir. Bir xil yoshdagi bolalar o‘qishida o‘ziga xos farqlanishlar mavjud. Biroq bolalikning xar bir davrida o‘qishning o‘ziga xos xususiyatlari,o‘qish sifatining o‘z yoshiga muvofiq munosabati namoyon bo‘ladi. Psixologik tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, bolaga kitob o‘qib berilganida unda:.so‘z boyligi oshadi; kitobga mehri paydo bo‘ladi;.muomilasi chiroyli bo‘ladi. Kitobda qanchalik mukammal so‘zlar mavjud bo‘lsa, kelajakda bolaga bu so‘zlarni o‘rganishi yanada oson bo‘lar ekan. Bolalarga 5 daqiqa davomida bo‘lsa ham kitob o‘qib berish, uning ham aqliy rivojlanishi uchun juda foydali ekan. Yana bir tadqiqotning ko‘rsatishicha, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ko‘p kitob o‘qilsa, ularning chap miya yarimshari rivojlanar ekan. Bu degani, bolada suhbat qilish, tasavvur, tilga moyillik kabi xislatlar yuksaladi. Kitobni o‘qilishini ko‘p eshitgan bola buyum va so‘zlar orasida bog‘liqlikni ko‘p ko‘ra boshlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi mexanizmlarini va usullarini ishlab chiqish muhimdir.

# III-BOB. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNING NATIJALARI.

## 3.1.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda olib borildi.

-Nazariy-qidiruv bosqichi (adabiyotlar tahlil qilindi,pedagogik jarayon kuzatildi va tahlil qilindi,so'rovnomalar o'tkazildi...)

-Shakllantiruvchi bosqich (Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi);

-Umumlashtiruvchi tajriba-sinov ishlari (katta guruh bolalari bilan takroriy so'rovnoma o'tkazildi va ularning bilim darajalari mustahkamlandi)

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 323-sonli va Olmazor tumanidagi 65- sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borildi. Tajriba –sinov ishlarida tarbiyachi13 ta 51 ta bola ishtirok etdi.

**NAZARIY - QIDIRUV BOSQICH.**

Nazariy-qidiruv bosqichining maqsadi: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo'yicha tarbiyachilar bilimlarini aniqlash.

Bu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Tarbiyachilarning ish hujjatlari o'rganildi.
2. Pedagogik jarayon kuzatildi.
3. Tarbiyachilar bilan so'rovnoma o'tkazildi
4. Katta guruh bolalari bilan so'rovnomalar o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarida katta guruh bolalaridan tajriba guruhida 26 va nazorat guruhida 25 ta bola ishtirok etdi.

Tarbiyachilarning ish hujjatlaridan istiqbol va kalendar rejalari o‘rganildi. Ish hujjatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki “Badiiy adabiyot”,”Nutq o‘stirish “mashg‘ulotlari bo‘limi bo‘yicha mavzular mantiqan ketma-ketlikda joylashtirilgan.Shuningdek tarbiyachilarning kalendar rejalari ham istiqbol reja asosida tuzilgan bo‘lib, unda mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlar sanalar bo‘yicha taqsimlanib chiqilgan.

Pedagogik jarayonni kuzatish maqsadida tarbiyachilarning “Nutq’’ markazlaridagi mashg‘ulotlarini kuzatdik, kuzatish shuni ko‘rsatdiki tarbiyachilar mashg‘ulotga puhta tayyorgarlik bilan kirishar ekan, ularda mashg‘ulot ishlanmalari va ko‘rgazmali qurollar mavjud.Tarbiyachilar mashg‘ulotni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishgan. Mashg‘ulot davomida bolalarni bilimlari mustahkamlanib va baholanib borildi.Bu esa bolalarda mavzuga nisbatan qiziqishni kuchaytirdi.

Tarbiyachilarning maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha so‘rovnomaga bergan javoblarining miqdoriy natijasi 3.1.1-jadvalda ko‘rsatilgan.

**TARBIYACHILARNING SO‘ROVNOMAGA BERGAN JAVOBLARINI MIQDORIY KO‘RSATKICHLARI JADVALI.**

**3. 1.1 – jadval.**

| Savollar | I | | II | | III | | IV | | V | | V I | | V II | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | + | - | + | - | + | - | + | - | + | - | + | - | + | - |
| **Madaniyat nima?** | **12<br>92,2<br>%** | **1<br>7 , 7<br>%** | | | | | | | | | | | | |
| **Kitobxonlik madaniyati-chi?** | | | 13<br>100<br>% | --<br>- | | | | | | | | | | |
| **Katta guruh bolalarini qanday kitoblar bilan tanishtirasiz?** | | | | | 10<br>77% | 3<br>23<br>% | | | | | | | | |
| **Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qanday ish shakllaridan foydalanasiz?** | | | | | | | 9<br>69<br>% | 4<br>31<br>% | | | | | | |
| **Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qanday usullardan foydalanasiz?** | | | | | | | | | 8<br>61,<br>5% | 5<br>38 ,<br>4% | | | | |
| **Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qanday vositalardan foydalanasiz?** | | | | | | | | | | | 11<br>83<br>,6<br>% | 2<br>15 ,<br>4% | | |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qanday adabiyotlardan foydalanasiz?** | | | | | | | | | | 10 77 % | 3 23 % | | |
| **Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha otaonalar bilan qanday ishlarni tashkil etasiz?** | | | | | | | | | | | | 11 84,5 9% | 2 15,5% |
| **% xisobida.** | **12 92,2 %** | **1 7,8 %** | **13 100 %** | **-----** | 10 77% | 3 23 % | 9 69 % | 4 31 % | 84, 6% | 10 77 % | 23 % | 11 84,5 % | 2 15,5% |

Tarbiyachilarni so‘rovnomaga bergan javoblarini sifat jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki 1-savolga 12 (92,2%), tarbiyachi to‘g‘ri., 1(7,8%) noto‘g‘ri javob berdilar, 2-savolga 100(100%) to‘g‘ri javob olindi. 3-savolga 10(77%) to‘g‘ri, 3(23%) noto‘g‘ri javob olindi, 4-savolga 9(69%) to‘g‘ri, 4(31%) noto‘g‘ri javob olindi, 5savolga 10(77%) to‘g‘ri, 3(23%) noto‘g‘ri javob olindi, 6-savolga 11 (84,5%), tarbiyachi to‘g‘ri., 2(15,5%) noto‘g‘ri javob berdilar,

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachilar, katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha asosan shakllaridan foydalanishadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini bo‘yicha bilimlarini aniqlash maqsadida ular bilan so‘rovnoma o‘tkazdik.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni so‘rovnomaga bergan javoblarining miqdoriy natijasi 3.1.2-jadvalda ko‘rsatilgan.

**Katta guruh bolalarining so‘rovnomaga bergan javoblarining ko‘rsatkichlari.**

**3.1.2 – jadval.**

| Savollar | I II | | III IV V | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | + | - | + | - | + - | + | - | + | - | |
| Kitoblarni yaxshi ko‘rasizmi? | 25 | 1 | | | | | | | | |
| Qanday kitoblarni yaxshi ko‘rasiz? | | | 20 | 6 | | | | | | |
| Kitoblarni sizga kim o‘qib beradi? | | | | | 22 | 4 | | | | |
| Oilangizda kutubxona bormi? | | | | | | | 21 | 5 | | |
| Kitoblarni saqlashni bilasizmi? | | | | | | | | | 22 | 4 |
| % xisobida. | 96% | 4% | 77% | 23% | 85% | 15% | 81% | 19% | 85% | 15% |

1-savolga 25(96%) to‘g‘ri, 1 (4%) noto‘g‘ri javob olindi, 2-savolga 20(77%) to‘g‘ri, 6 (23%) noto‘g‘ri, 3-savolga 22(85%) to‘g‘ri, 4 (15%%) noto‘g‘ri, 4-savolga 21(81 %) to‘g‘ri, 5(19%) noto‘g‘ri,5-savolga 22(85%) to‘g‘ri, 4(15%) noto‘g‘ri javob berganlar Bolalarni bergan javoblaridan ko‘rinib turibdiki bolalarning kitob,badiiy asarlar janrlari, oilada tashkil etilgan kutubxona to‘g‘risida umumiy fikrlar mavjuddir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki tarbiyachilar bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazayotganda ,ularni kitoblar ,badiiy adabiyotlar bilan bilan tanishtirshadilar lekin kitobni asrash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish masalasiga alohida e’tibor qaratmas ekanlar.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov uchun katta guruh bolalaridan 26 ta bola qamrab olindi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinovning maqsadi,

Maktabgacha katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, katta yoshdagi bolalar kitob, uni e’zozlash haqidagi bilimga egadirlar,lekin ularda kitobxonlik madaniyati haqida aniq bilimlarga ega emaslar. Bu natijalar esa bizga shakllantiruvchi tajribada olib boradigan ishimizni mazmunini ishlab chiqish imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida olib borildi. Mashg‘ulotlar bir oyda ikki marotaba olib borildi. Har bir o‘tkazilgan mashg‘ulotlar qarorlashtirib borildi va ular tahlil qilib borildi. Quyida biz ayrim mashg‘ulot va suhbat qarorlaridan namunalar keltiramiz.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan quyidagi mavzularda suhbatlashish mumkin.

-Mening sevimli ertagim?

-Mening sevimli qahramonim?

-Mening sevimli kitobim?

-O‘z qo‘limiz bilan kitobcha yasaymiz?

Suhbatlarni tashkil etishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1) Eratkdagi qaysi voqealar sizga yoqadi?

2) Insonga qaysi fazilat yaxshi – yu, qaysinisi yomon?

3) Sen o‘zingdagi qaysi odatlarni yo‘qotishing kerak?

4) Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lasan?

Degan savollar bilan murojaat qilish mumkin.

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari bilan suhbat.**

Tarbiyachilarga ham savollar bilan murojat qildik.

1. Bolaga qanday kitoblarni, ertaklarni hikoyalarni o‘qishni, o‘rganishni maslahat berasizmi?

2. O‘zingiz qanday badiiy adabiyotlar o‘qiysiz.

3. Bolaga hikoya va ertaklarni qaysi metod va usullar bilan tushuntirasiz?

4.Shaxsiy kutubxonangiz bormi, u erda qanday kitoblar mavjud?

Shunda tarbiyachilar bolalar ko‘proq o‘zbek milliy ertaklarini yoqtirishini, ertak qahramonlari, Zumradga, Baxtiyorga, Oyg‘ulga, Uch og‘ayni botirlardagi kenja o‘g‘ilga va havas qilishlarini aytib o‘tdilar.

**“Jajji kitobxon”**

Loyihaning maqsadlari:

-mavzu bo‘yicha eng yaxshi pedagogik tajribani, pedagogik adabiyotlarni, onlayn manbalarni o‘rganish;

- bolalar bilan ishlash usullari va usullarini yangilash orqali o‘quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o‘zaro ta’sirida bolalarni kitob bilan tanishtirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish;

O‘qishga qiziqish va muhabbatni uyg‘otish, bolalar kitoblarini o‘qishga qiziqishni rivojlantirish;

- oilaning o‘qish savodxonligini oshirish, uyda o‘qish an’anasini tiklash;

-bolalarda o‘qish savodxonligini shakllantirish bo‘yicha an’anaviy pedagogik usullar va ish shakllarini yangilash va joriy etish;

-tarbiyachining pedagog-psixolog, musiqa rahbari, shuningdek maktab kutubxonasi xodimlari bilan o‘zaro munosabati orqali o‘quv jarayonini integratsiyalashning amaliy imkoniyatlarini kengaytirish.

Kutilayotgan natijalar:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha maqsadli, tizimli ish olib borish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini kengaytirish va boyitish, "tarbiyalanuvchi bilan muloqat" ni kengaytirish, bolalarning nutqi va intellektual darajasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

• oilada o‘qish madaniyatining tiklanishi;

• adabiy fikrni tushunishga, anglashga va takrorlashga qodir bo‘lgan faol kommunikativ shaxsni shakllantirish.

Bu loyihani amalga oshirishda ota-onalar bilan birgalikda ishni tashkil etish muhimdir.

Loyihaning maqsadi:

• tarbiyalanuvchilarni adabiy meros, tanlov mavzusiga ko‘ra eng yaxshi she’riyat va nasr namunalari bilan tanishtirish;

• tarbiyalanuvchilar orasida eng iqtidorlilarini aniqlash, ularga o‘z fikrlarini bayon qilish imkoniyatini berish;

• badiiy adabiyotni ifodali o‘qishga qiziqishni oshirish.

«Eng yaxshi kitobxon” tanlovining mavzusi tematik rejalashtirishga muvofiq tanlanadi. Guruhdagi har bir musobaqada bolalar bilan tarbiyachilar oldindan kitoblar va bolalar asarlari ko‘rgazmasini tashkil qiladilar. Shunday qilib, har bir bolaga qahramonga o‘z munosabatini rasm orqali ifoda etish imkoniyati beriladi.

Musobaqalar maktabgacha ta’lim tashkiloti, tuman kutubxonasi xodimlari va otaonalardan iborat mustaqil hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Bunday tadbirlar bolalarni ijtimoiylashishiga yordam beradi, muloqot chegaralarini kengaytiradi, shuningdek umumiy ishda qatnashishdan xursand bo‘ladi.

Kitobxonlik musobaqalari bolaning hayotidagi yorqin lahzadir, uning taassurotlarini boyitadi va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Ular har tomonlama rivojlanishga hissa qo‘shadi, san’atning har xil turlarini tanitadi, quvnoq his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, kayfiyat va hayotiylikni ko‘taradi.

**"She’rlar dunyosi" kitobxonlik tanlovi**

Loyihamizni amalga oshirishda ushbu texnologiyadan foydalanish nutqni, nutqiy aloqani va muloqotni rivojlantirishga imkon beradi.

Shu munosabat bilan biz "Buvimning ertaklari", "Do‘stlarimizning kitoblari", "Do‘st - oila" mavzularida to‘garak mashg‘ulotlari o‘tkaziladi, bu erda bolalar kitoblar va ularning belgilarini batafsilroq bilishadi va mustaqil ravishda mustaqil ravishda shug‘ullanishlari mumkin. Asosiysi, bolaning tashabbusi, uning xohishi, ijodkorligi va tasavvuridir. Yengil, erkin shaklda shaxsni, uning imkoniyatlarini ochib berish jarayoni sodir bo‘ladi.

Bolalarning kitobga bo‘lgan ehtiyojini uyg‘otish uchun oila bilan o‘zaro aloqada bo‘lish kerak Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida an’anaviy va noan’anaviy ish turlaridan foydalaniladi.

Bolalarni kitob bilan tanishtirishning shakllaridan biri "O‘z qo‘llarimiz bilan kitoblar yasaymiz" ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish bo‘lib, unda bolalar ota-onalari bilan birgalikda "Mening sevimli ertagim", "Biz hikoyachilar va rassomlarmiz" mavzularida kitoblar tayyorlaydilar.

Ushbu shakl bolalarni va ularning ota-onalarini kitob bilan qiziqtirishga, izlanish muhitini yaratishga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlari chegaralarini kengaytirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi ota-onalar va bolalar ijodiyoti bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilishda ko‘rgazmaning tematik yo‘nalishini kitob bilan bog‘lashga harakat qilamiz (masalan, ko‘plab maktabgacha yoshdagi guruhlarda an’anaviy ko‘zgi yarmarkada guruhning muhiti nafaqat ota-onalar va bolalar ijodiyoti ko‘rgazmalari bilan bezatilishi mumkin ). Kuz mavzusida ma’lumotli kitoblar - vitaminlar, kuzning sovg‘alari, ma’lumot sahifasi va ota-onalar farzandlari bilan birgalikda tayyorlangan rasmlar).

Har bir guruhda ota-onalar uchun "Biz uyda o‘qiymiz" burchaklari yaratildi, bu erda ota-onalar uyda oilaviy o‘qish uchun kitob olib, farzandlari bilan o‘yda o‘qishlari mumkin.

Eng kichik maktabgacha yoshdan boshlab, ota-onalar bilan adabiy dam olishni tashkil etish har bir ota-onaga bolalarga o‘zlarining sevimli adabiy asarlarini o‘rganish uchun qo‘shma faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi va bolalarda ham, kattalarda ham ijodkorlik va ifodali o‘qish va hikoya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Bolalarni adabiy asarlar bilan tanishtirishda bolalarning sahnalashtirish faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek tarbiyalanuvchilarga kitob mutolasi bo‘yicha onlayn-uchrashuvlar tashkil etish mumkin. Bunda har bir ota-ona bolalarning o‘qish masalalari bo‘yicha malakali yordam va ekspert maslahatlarini olishlari, rasmiy veb-saytda Internet orqali onlayn savollariga javob olishlari mumkin.

Onlayn loyihaning maqsadlari:

- mavzu bo‘yicha eng yaxshi pedagogik tajribani, pedagogik adabiyotlarni, onlayn manbalarni o‘rganish;
- bolalar bilan ishlash usullari va usullarini yangilash orqali o‘quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o‘zaro ta’sirida bolalarni kitob bilan tanishtirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish;

-o‘qishga qiziqish va muhabbatni uyg‘otish, bolalar kitoblarini mustaqil o‘qishga qiziqishni rivojlantirish;

- oilaning o‘qish savodxonligini oshirish, uyda o‘qish an’anasini tiklash;

-bolalarda o‘qish savodxonligini shakllantirish bo‘yicha an’anaviy pedagogik usullar va ish shakllarini yangilash va joriy etish;

-maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun audio kitoblar majmuasidan foydalanish; Onlayn mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar:

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘qish savodxonligini shakllantirishtexnologiyasi bo‘yicha maqsadli, tizimli, tizimli ish olib borish.

2.Ushbu yo’nalishda to‘liq va sifatli ish olib borish uchun moddiy-texnik, uslubiy, o‘quv-uslubiy bazani yaratish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini kengaytirish va boyitish, "Bola bilan muloqot zonasi" ni kengaytirish, bolalarning nutqi va ntellektual darajasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

4.Oilada o‘qish madaniyatining tiklanishi;

5. Adabiy fikrni tushunishga, anglashga va takrorlashga qodir bo‘lgan faol kommunikativ shaxsni shakllantirish.

Bugunga kunda on-layn mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish tarbiyachi va ota-onalardan ma’suliyatni talab etadi.

**“Eng zukko kitobxon” tanlovi.**

Tanlov maqsadi:

- maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni mamlakatimiz adabiy merosi, tanlov mavzusiga ko‘ra eng yaxshi she’riyat va nasr namunalari bilan tanishtirish;
- bolalar orasida eng iqtidorli aniqlash, ularga o‘z fikrlarini bayon qilish imkoniyatini berish;

• badiiy adabiyotni ifodali o‘qishga qiziqishni oshirish.

Guruhdagi har bir musobaqada bolalar bilan tarbiyachilar oldindan kitoblar va bolalar asarlari ko‘rgazmasini tashkil qiladilar. Shunday qilib, har bir bolaga ish yoki qahramonga o‘z munosabatini rasm yoki hunarmandchilik orqali ifoda etish imkoniyati beriladi.

Musobaqalar maktabgacha ta’lim tashkilotlar tarbiyachilari, tuman kutubxonasi xodimlari va ota-onalardan iborat mustaqil hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Tanlovlarning o‘zi qiziqarli mavzudagi va ma’lum bir mavzuni birlashtirgan holda o‘tkaziladi. Senariyda bolalar asarlari, turli qiziqarli viktorinalar, musiqa va nutq o‘yinlari mavjud bo‘ladi.. Bunday tadbirlar bolalarni ijtimoiylashishiga yordam beradi, muloqot chegaralarini kengaytiradi, shuningdek umumiy ishda qatnashishdan xursand bo‘ladi.Bunday tanlovlar bolaning hayotidagi yorqin lahzadir, uning taassurotlarini boyitadi va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Ular har tomonlama rivojlanishga hissa qo‘shadi, san’atning har xil turlarini tanitadi, quvnoq his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, kayfiyat va hayotiylikni ko‘taradi.

Shuningdek "She’rlar - yoqimli " kitobxonlik tanlovi.
Ushbu texnologiyadan foydalanish nutqni, nutqiy aloqani va muloqotni rivojlantirishga imkon beradi.

Bolalarning o‘qishga bo‘lgan ehtiyojini uyg‘otish uchun oila bilan o‘zaro aloqada bo‘lish kerak Bizning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida an’anaviy va noan’anaviy ish turlaridan foydalaniladi.

Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha texnologiyasi "O‘z qo‘llarimiz bilan kitoblar" ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish bo‘lib, unda bolalar ota-onalari bilan birgalikda "Mening sevimli ertakim", "Biz hikoyachilar va rassomlarmiz" mavzularida kitoblar tayyorlaydilar.

Ushbu shakl bolalarni va ularning ota-onalarini bo‘lajak o‘qish bilan qiziqtirishga, izlanish muhitini yaratishga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlari chegaralarini kengaytirishga imkon beradi.

Yuqorida o‘tkazilgan tadbirlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi

## 3.2 Tajriba-sinov ishlarini tahlili Umumlashtiruvchi tajriba-sinov ishlari.

Umumlashtiruvchi tajriba-sinov ishlari maqsadi: tajriba va nazorat guruh bolalarini bilim darajalarini aniqlash va taqqoslashdan iboratdir.

Shakllantiruvchi tajriba- sinovlaridan so‘ng katta guruh bolalarini kitobxonlik bo‘yicha bilim darajalarini aniqlash maqsadida (tajriba guruhi) bolalari bilan takroriy so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari 3.2.1 jadvalda keltirilgan.

Jadval 3.2.1

| Savollar | I | | II | | III | | IV | | V | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | + | - | + | - | + | - | + | - | + | - |
| I | 26 | - | | | | | | | | |
| II | | | 22 | 4 | | | | | | |
| III | | | | | 21 | 5 | | | | |
| IV | | | | | | | 20 | 6 | | |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| V | | | | | | | | | 19 | 7 |
| % hisobida | 100 | - | 83,6 | 16,4% | 79,8% | 20,2% | 76% | 24% | 73,4% | 26,6% |

Olingan javoblarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, 1-savolga 100% bola to‘g‘ri javob berdi; 2-savolga 22 (83,6%) to‘gri, 4 (16,4%) noto‘gri; 3-savolga 21 (79,8%) to‘gri, 5 (20,2%) noto‘g‘ri; 4-savolga 20 (76%) to‘g‘ri, 6 (24%) noto‘g‘ri; 5-savolga 19 (73,4%) to‘g‘ri, 7 (26,6%) noto‘gri javob berilgan.

Natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki,ko‘rsatdiki katta guruh bolalarini kitobxonlik madaniyati haqidagi bilimlari chuqurlashgan va mustaxkamlangan.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishining samaradorligini aniqlash maqsadida nazorat guruh bolalari bilan ham so‘rovnoma o‘tkazdik.

Nazorat guruh bolalarining so‘rovnomaga bergan javoblarining miqdoriy ko‘rsatkichlari 3.2.2jadvlda keltirilgan.

**Jadval 3.2.2**

| Savollar | I | | II | | III | | IV | | V | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | + | - | + | - | + | - | + | - | + | - |
| I | 25 | - | | | | | | | | |
| II | | | | | | | | | | |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 18 | 7 | | | | | | |
| III | | | | | 15 | 10 | | | | |
| IV | | | | | | | 13 | 12 | | |
| V | | | | | | | | | 19 | 6 |
| % hisobida | 100% | - | 72% | 18% | 60% | 40% | 52% | 48% | 76% | 24% |

Olingan javoblarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, 1-savolga 25( 100%)  to‘g‘ri javob berdi; 2-savolga 18 (72%) to‘g‘ri, 7 (18%) noto‘g‘ri; 3-savolga 15 (60%) to‘g‘ri, 10 (40 %) noto‘g‘ri; 4-savolga 13 (52%) to‘g‘ri va 12(48%) noto‘g‘ri ; 5-savolga 19 (76%) to‘g‘ri, 6 (24%) noto‘g‘ri javob berganlar .Nazorot guruhi bolalarini bilim darajalarini sifat jihatdan tahlili qilish shuni ko‘rsatdiki ,ularni  kitobxonlik madaniyati to‘g‘risidagi  bilim darajalari etarli darajada emas.

**Tajriba va nazorat guruhi bolalarining bilim darajalarini solishtirma jadvali**

**Jadvali 3.2.2**

| | **Savollar** | **Bolalar soni** | **Tajriba guruhi** | | **Bolalar soni** | **Nazorat guruhi** | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | + | - | | + | - |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | I | 26 | 26<br>100% | | 25 | 100% | |
| **2.** | II | 26 | 22<br>83,6% | 4<br>16,4 | 25 | 18 72% | 7<br>18% |
| **3.** | III | 26 | 21<br>79,8% | 5 20,2% | 25 | 15 60% | 10 40% |
| **4.** | IV | 26 | 20<br>76% | 6<br>24% | 25 | 13 52% | 12 48% |
| **5** | V | 26 | 19<br>73% | 7<br>27% | 25 | 19 76% | 6<br>26% |

Eslatma: T.G- tajriba guruhi, N.G-nazorat guruhi

Olingan javoblarni tahlili shuni ko‘rsatdiki,

1-savolga T.G 26 (100%) bola to‘g‘ri javob berdi; N.G 25 (100% )bola to‘g‘ri javob berdi;

2-savolga T.G 22 (83,6%) to‘g‘ri, 4 (16,4%) noto‘g‘ri; N.G18(72%) bola to‘g‘ri javob berdi,7(17%) bola noto‘g‘ri javob berdi javob berdi;

3-savolga T.G 21 (79,8%) to‘g‘ri, 5 (20,2%) noto‘g‘ri;N.G 15( 60%), bola to‘g‘ri javob berdi, 10( 40% ) bola noto‘g‘ri javob berdi;

4-savolgaT.G 20 (76%) to‘g‘ri 6(24 %) noto‘g‘ri; N.G 13(52%) bola to‘g‘ri javob berdi, 12( 48,%) bola noto‘g‘ri javob berdi;

5-savolga T.G 19 (73,4%) to‘g‘ri, 6 (26,6% %) noto‘g‘ri,N.G19 (76%) bola to‘g‘ri javob berdi,6(24%) bola noto‘g‘ri javob berdilar.

Nazorat guruh bolalarini so‘rovnomaga bergan javoblari shuni ko‘rsatdiki, katta yoshdagi bolalar kitobxonlik madaniyati haqida umumiy fikrlar mavjud.

Tajriba va nazorat guruhi bolalarini tajribadan so‘ng bilimlarni o‘zlashtirish darajalari 3.2.3 jadvalda keltirilgan.

**Jadvali 3.2.3**

**Tajriba va nazorat guruhi bolalarini tajribadan so‘ng bilimlarni o‘zlashtirish darajalari**

| Daraja | Bolalar soni | Tajriba guruhi | Tajriba guruhi | Bolalar soni | Nazorat guruhi | Nazorat guruhi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| I | 26 | 15 | 57% | 25 | 10 | 40% |
| II | 26 | 9 | 34,2% | 25 | 7 | 28% |
| III | 26 | 2 | 7,6 % | 25 | 8 | 32% |

- T.G bolalar yuqori darajada kitobxonlik madaniyatini o‘zlashtiganlar15ta bola( 57%) , N.G. 10 ta (40%) bolada , tajriba guruhida yuqori daraja 17% yuqori nazorat guruhiga nisbatan;

- o‘rta daraja bolalar kitobxonlik madaniyatini T.G 9ta bola (34,2%), N.G. bola 7 ta(28%) o‘zlashtirganlar, tajriba guruhida o‘rta daraja 7% yuqori natija nazorat guruhiga nisbatan;

- past darajada T.G 2ta bola (7,6 %), N.G. bola 8 ta bola (32%) , bundan ko‘rinib turibdiki tajriba guruhida past darajada o‘zlashtirgan bolalar o‘rtasidagi farq (7,6 %) tashkil etadi

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatdiki, shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlaridan so‘ng tajriba guruhi bolalarida kitobxonlik madaniyatini o‘zlashtirilishi nazorat guruhiga nisbatan ancha ortgan.Bizning fikrimizcha bu biz tomonimizdan ishlab chiqilgan

dasturiy-uslubiy materiallar asosida olib borilgan tadqiqot ishining samarodorligini isbotladi.

Tadqiqot natijalari asosida katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining modelini ishlab chiqdik.

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti**

**Kitobxonlik madaniyatini shaklantirish**

O‘quv faoliyati

Ijodiy faoliyat

Oila bilan hamkorlik

Mustaqil faoliyati

**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mazmuni**

**Yo‘llari:** individual va umumiy pedagogik talablarni qo‘yish; an’analarni tarkib toptirish, jamoa imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish, o‘z-o‘zini boshqarishiga erishish, ta’lim tashkiloti va oilalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikka erishish.

**Omillari :**maktabgacha ta’lim tashkilotida adabiiy kitobxonlik muhitini yaratish**,** ta’lim tashkiloti va oilalarning imkoniyatlari.

**Shakllari:** mashg‘ulotlar, suhbat, tanlovlar, on-layn mashg‘ulotlar, kitob ko‘rgazmalari, rasmlar ko‘rgazmalari va tanlovlari va auditoriyadan tashqari faoliyat**.**

**Metodlari:** kuzatish, tushuntirish, suhbat, namuna ko‘rsatish, ishontirish, baholash , o‘yin, sahnalashtirish, taqdimotlar.

82

**Vositalari:** AKT, taqdimotlar, badiiy asarlarni sahnalashtirish, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar.

## 3-Bob bo‘yicha xulosa

Maktabgacha katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda olib borildi:

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi № 323 - sonli Olmazor tumanidagi 65 -sonli maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borildi. Tajriba – sinov ishlarida 13 ta tarbiyachi va 51 ta katta guruh bolalari ishtirok etdi.

Qayd etuvchi tajriba-sinov ishlarida quyidagi ishlar amalga oshirildi: tarbiyachilarni maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini haqidagi bilimlari aniqlandi; katta guruh bolalarini kitobxonlik madaniyatini haqidagi bilimlari aniqlandi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari katta guruh bolalari bilan o‘tkazildi, shakllantiruvchi tajriba-sinovdan maqsad katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasidan iborat edi.

Shakllantiruvchi bosqichda katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

- T.G bolalar yuqori darajada kitobxonlik madaniyatini o‘zlashtiganlar15t a bola( 57%) , N.G. 10 ta (40%) bolada , tajriba guruhida yuqori daraja 27% yuqori nazorat guruhiga nisbatan;

- o‘rta daraja bolalar kitobxonlik madaniyatini T.G 9ta bola (34,2%), N.G. bola 7 ta(28%) o‘zlashtirganlar, tajriba guruhida o‘rta daraja 7% yuqori natija nazorat guruhiga nisbatan;

- past darajada T.G 2ta bola (7,6 %), N.G. bola 8 ta bola (32%) , bundan ko‘rinib turibdiki tajriba guruhida past darajada o‘zlashtirgan bolalar o‘rtasidagi farq (7,6 %) tashkil etadi

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatdiki, shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlaridan so‘ng tajriba guruhi bolalarida kitobxonlik madaniyatini o‘zlashtirilishi nazorat guruhiga nisbatan ancha ortgan. Bizning fikrimizcha bu biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dasturiy-uslubiy materiallar asosida olib borilgan tadqiqot ishining samarodorligini isbotladi.

Bu esa, bizning ishchi farazimizni katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mumkin degan tahminimizni to‘g‘ri ekanligini isbotladi

**Umumiy xulosalar**

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hozirgi davrda jamiyatimizning barqaror ma’naviy rivojlanishi va ijtimoiy hayotning jadallashishi ta’lim oluvchilarning bilimlarini muntazam oshirib borish va chuqurlashtirish, ularni fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini jadal egallash, hayot va faoliyatning barcha jabhalarida, muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan yuqori raqobatbardoshlikka ega ma’naviyati yuksak bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan avlodni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish lozim.

2.Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta’sirchan vositasi bo‘lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga o‘lkan hissa qo‘shadi. Badiiy adabiyot she’riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi.

3.Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini – hamdarlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a’zolari nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o‘tkazish zarur.

4.Tajriba-sinov ishlari natijasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasining mezonlari aniqlashtirildi.

5.Kattalarning (pedagoglar, ota-onalar va boshq.) badiiy asarni o‘qish yoki hikoya qilib berish jarayoniga emotsional qo‘shilishlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.

6. Mashg‘ulotlar va mashg‘ulotlardan tashqari jarayonida katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda mashg‘ulotlarni loyihalash va rejalashtirish, ularning metodik ta’minotini yaratish va ulardan mashg‘ulotlar jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

7. Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasida innovatsion ish shakllaridan ,ya’ni on-layn uchrashuvlar, badiiy asarlar taqdimoti, audiokitoblarni o‘qish,turli ktiob festivallari, kitobxonlik tanlovlardan foydalanilsa maqsadga muvofiqdir.

8.Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning (5-7 yosh) adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularda qahramonlarga qayg‘urish va hamdard bo‘lish; voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o‘rtasida turi xil mazmunli aloqalar o‘rnatish;

qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni ko‘rish va tushunish qobiliyatlari paydo bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.**

1.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilada adabiiy-kitobxonlik muhitini yaratish, buning uchun guruhlarda va oilada kitob mutolasi burchaklarini tashkil etish.

2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi tizimini nazariy-metodik jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasida quyidagi ish shakllaridan foydalaNilsa kitob do‘konlariga sayyohat, bolalar shoiri va yozuvchilari bilan uchrashuv, tanlovlar, kitob va rasmlar ko‘rgazmalarini tashkil etish.

4.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasida ota-onalar hamkorligini tashkil etish, bunda ota-onalar o‘rtasida “Eng mazmunli kutubxona”, “Eng zukko kitobxon” kabi tanlovlarni o‘tkazib borish amaliy natijalarga erishish imkonini beradi.

# ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

## O‘zbekiston Respublikasi davlat qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni ‘‘Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 20-29-b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 32-b.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezident SH.Miziyoyevning ‘‘Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida’’gi PQ-3305-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezident SH.Miziyoyevning ‘‘2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent sh., 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. —’’2017 - 2021 yillarida maktabgacha ta’limni tizimini yanada takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 1- son, 11- modda.

6. Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5198, 30.09. 2017yil .

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyati ni oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida’’ qarori. PQ-3271.i 2017-yil 13- sentabr.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlarining asarlari:**

11.Karimov I.A. ―Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch’’.Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 176 b.

12. Shavkat Mirzièyev. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston», 45-b

13.Mirziyoyev.SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T., 2017 y, 22 **Asosiy adabiyotlar:**

15.Abdullayeva S. ‘‘6-7 yoshli bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini aniqlashda test usulidan foydalanish’’ Maktabgacha ta’lim. – 2002. №1..

16.Abu rayhon Beruniy“Saydana” T.:1992y

17.Avloniy A Turkiy guliston yoxud axloq.T;O‘qituvchi1992 yil

18.Azizxo‘jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi’’ nashriyoti Toshkent 2006 yil 159bet

19.Azizxodjayeva N.N O‘qituvchi mutaxassis tayyorlash texnologiyasi T.; Nizomiy TDPU 2000 yil.

20.Barakayev R ‘‘O‘zbek bolalar adabiyoti ‘‘T-Fan. 2004 yil

21.Badiiy terma kitob.(Bog‘chaning katta guruhlari uchun) G‘oziyeva va boshqalar.1993yil

22.Bo‘ri Ziyomuhamedov Sog‘lom bola shaxsiyatini shakllantirish haqida.Tafakkur 2011yil.

23. Bolalar ensiklopediyasi.2000 yil.

24.Goncharova YE. Ranniye etapi priobsheniya detey k chteniyu// Vospitaniye shkolnikov. - 2005. - № 12. - S. 45-56

25. Grishenko Z. A. Detskaya literatura. Metodika priobsheniya lyudey k chteniyu: uchebnoye posobiye — 3-ye izd., ster. — M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2008. - 320 s. 46

26..Inomova M.Oilada bolalarning manaviy axloqiy tarbiyasi’’.Fan 2000yil.

27.Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili’’ darslik T-Talqin 2005yil

28.Jumaboyev M O‘zbek bolalar adabiyoti’’-T;O‘qituvchi.2002 yil.

29.Jumaboyev M Bolalar adabiyoti’’-T;O‘qituvchi.2011yil.

30.Jo‘rayev G O‘zbek bolalar she’riyatida hajviy obraz yaratish mahorati-’’T; Muharrir,2011yil.

31.Jonatan Svift. Sobraniye sochineniy v 3 t. — M.: Terra-Literatura, 2000. — T. I. —480 s.; T. II. -480 s.

32.Karinishina L. M. «Primer samootverjeniya» // Moskovskiy jurnal. — 2014. - № 11. - S. 24-31.

33.Kozlova S.A., Kulikova T.A. Doshkolnaya pedagogika. – M.: -ACADEMA’’2000.

34.Kuzevanova O.V. Formi organizacii kommunikativnoy deyatelnosti detey doshkolnogo vozrasta. // Detskiy sad: teoriya i praktika – 2012. – № 6.

35.L.Mo‘minova,R, Kabulova S Po‘latova Maktabgacha ta’lim muassasalarining katta va tayyorlov guruh bolalarining nutqini xalq o‘yinlari asosida rivojlantirish texnologiyasi.T;Fan va texnologiya 2014 yil .

36.Masharipova Z.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi T-2008 yil.

37.Mashriqzamin-xikmat bo‘stoni.-Toshkent,1997.39 bet.

38.Matchonov S Kitob o‘qishni bilasizmi? T- O‘qituvchi 1993yil 140 bet.

39.M.G‘aybullaeva,D.G‘aybullaeva.Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi.Qo‘llanma 2006

40.M.G‘aybullaeva Farzandlarimizni allalab,erkalatib o‘stiramiz.Qo‘llanma 2006yil

41.Mutolaa madaniyati; shaxs, jamiyat,taraqqiyot.-T; Fan, 2004yil.

42.Nazirova G.M ‘‘Maktabgacha talim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ‘‘Fan va texnologiY.2014 yil.

43.Nasiba Erxonova, Zuhra Ro‘ziyeva ‘‘Tarbiyachi kitobi’’.Toshkent 2019 yil.

44.N.M .Kayumova ‘‘Maktabgacha pedagogika’’ o‘quv qo‘llanma TDPU -2014 yil

45.Nishonova Z.T.,Alimova G.K ‘‘Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi’’T, TDPU-2017 yil.

46.Ochilov M Yangi pedagogik texnologiyalar.-Qarshi Nasaf 2000 yil.

47.Safo Matjon Komillik mezonlari.T.: Sharq 2010 y 38 bet.

48.Saidahmedov N.Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar.T.O‘ZMU 2003 yil.

49. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.-T. XTV RTM,2000 yil.55bet.

50.S.S. Djalilova S.Aripova ‘‘Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi’’ T-.2014 y

51.Smayls, S. «Bo‘sh qop tik turmas» // Nauka i jizn. 2006. № 11.

52.“Temur tuzuklari”.T.: Mavorounnahr nashriyoti 2010y 39 bet.

53.Umarov A. Kitob va kitobxon: an’analar va yangiliklar.Sog‘lom avlod uchun.2003yil. № 11.-B.16- 20

54.YO’ldoshev E. Kitoblar olami uslubiy qo‘llanma. Toshkent.: 2012y 36 bet.

55.YO’ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti, 2002y 25 bet.

56.Z.Nishonova, G.Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi’’. O‘zbekiston.Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent 2006 yil 54-68 bet.

57.O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari.Toshkent. 2018yil.

58.O‘tabaliyeva.Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi Qo‘llanma 1994yil

59.SH.A.Sodiqova Maktabgacha pedagogika.―Fan va texnologiY. nashriyoti,T.:2012 yil.

60.SH.Abdullaeva.Pedagogika.T O‘qituvchi’’.2000yil.

61.Chinniyeva S.A O‘zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o‘smirlar ma’naviyatini shakllantiish’’.mavzusidagi p.f.n dessertatasiya ishi.2007 yil 43-45 betlar.

62.G‘aniyeva B.Bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning muommolari.Davra suhbati materiallari"-T .2004yil.B.135-137.

63.Ergashev,YO’ldoshev E.Kutubxona va kitobxon. Toshkent.O‘zbekiston nashriyoti,2008 yil

64.Fayziyev A.Kitob o‘qish kerak.Jamiyatda yosh avlodni barkamol qqilib tarbiyalashda kitobning roli haqida.T-2008- 12 aprel.

65.Xasanboyeva O va boshqalar.Maktabgacha pedagogika. Toshkent 2006 yil.

66.X.Xomidiy “Avesto qaydlari” T.: 2002 yil.

**Internetdan olingan ma’lumotlar:**

http://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkatamirziyeev-25-01-2020 http://www.vak.uz.

http://uz.m.wikipedia.org

http://m.kun.uz.
http://lex.uz.

# ILOVALAR

**Ilova-1**

**Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha tarbiyachilar uchun so‘rovnoma Hurmatli tarbiyachilar!**

**Javoblaringiz bolalar va ota-onalarning kitob madaniyatiga bo‘lgan munosabatini aniqlashtirishga va kitob burchagi faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Sizdan taklif qilingan savollarga javob berishingizni so‘raymiz**

**(Tarbiyachilar uchun**)

1.Kitob nima?

---

2.Kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunasiz?

---

3.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mumkinmi?

---

4.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllanitirishda qanday metodlardan foydalanasiz?

---

5. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllanitirishda qanday usullardan foydalanasiz?

---

6. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllanitirishda qanday vositalardan foydalanasiz?

---

7. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllanitirishda qanday adabiyotlardan foydalanasiz?

8. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllanitirishda ota onalar bilan qanday ishlar olib borasiz?

Ilova-2

**So‘rovnoma**

(Bolalar uchun)

1.Kitob nima?

2.Qaysi yozuvchilarni bilasan?

3.Qaysi ertaklarni bilasan?

4.Qaysi ertak qahramonlarini yaxshi ko‘rasan?

5.Qanday she’rlarni yoddan bilasan?

6.O‘zing hikoya tuza olasanmi?

7.Ota-onang qanday kitoblarni o‘qib berishadi?

**Ilova-3**

**Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob madaniyatini shakllantirish texnologiyasi bo‘yicha ota-onalar uchun so‘rovnoma Hurmatli ota-onalar!**

**Javoblaringiz bolalar va ota-onalarning kitob madaniyatiga bo‘lgan munosabatini aniqlashtirishga va kitob burchagi faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Sizdan taklif qilingan savollarga javob berishingizni so‘raymiz.**

1. O‘qishga nisbatan o‘zingizni qanday his qilasiz

A) O‘zingiz uchun o‘qishni yoqtirasizmi

B) Sizga unchalik yoqmaydi

C) ahamiyati yo‘q

2. Siz qanchalik tez-tez o‘qiysiz

A) Doim o‘qiysiz

B) Ko‘pincha

C) Ba’zan

3. Qanday janrdagi asarlarni o‘qiysiz?
A) klassika

B) detektivlar

C) sarguzashtlar

D) ilmiy fantastika

4. Sizning uyingizda bolalar kutubxonasi bormi?..........................................

5. Unda nechta kitob bor?........................................................................................

6. Farzandingiz qanday o‘qish qiziqishini kashf etadi?..................................................................................................................
..........................................................................................................................

7. Qanday bolalar jurnallarini sotib olasiz?
..........................................................................................................................
...........................................................................................................

8. Siz bolalaringizga tez-tez kitob o‘qib berasizmi?

A) Har kuni

B) Ba’zida (haftasiga necha marta)

C) Men umuman o‘qimayman

9. Nega bolangiz o‘qishni yoqtirishini xohlaysiz?..................................................................................................................
....................................................................................................................

10. Zamonaviy bolalar o‘qish kitoblarini nima beradi?
..........................................................................................................................
.........................................................................................................

11. Kitob burchagidan sizga qanday yordam kerak?

..........................................................................................................................
.......................................................................................................

Rahmat!

Ilova-4

**Tarbiyachilar va ota-onalar uchun eslatma!**

1. Kitobni mashg‘ulotlar orqali avaylashga o‘rgatish.
2. Ertaklar va hikoyalar orqali kitobsevarlikka o‘rgatish.
3. Kutubxonalar va kitob do‘konlariga ekurskursiya uyushtirish.
4. Tadbir va tanlovlar orqali kitobxonlikka o‘rgatish.
5. Turli didaktik o‘yinlar orqali kitobxonlikka o‘rgatish.
6. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari oila hamkorligini tashkil etish.
7. Televedeniya ko‘rsatuv va eshitirishlardan foydalanish.
8. Maqollar va tez aytishlar orqali kitobsevarlikga o‘rgatish.
9. Kitobxonlikka o‘rgatishda rasmli kitoblardan unumli foydalanish.

## GLOSSARIY

| O‘zbek tili | Rus tili | Ingliz tili |
|---|---|---|
| Maktabgacha | Doshkolniy | Preschool |
| Ta’lim | Obrazovaniye | Formation |
| Tayyorlov | Podgotovitelnoye | preporation |
| Axloq | Nravstvennost | Morality |
| Xalq | Narod | Folk |
| Milliy | Natsionalniy | national |
| Urf-odat | Obichay i privichki | Custom and habits |
| Estetika | Estetika | Aesthetics |
| Ko‘nikma | Navik | Sommand |
| Jarayon | Protsess | Process |
| Pedagogik | Pedagogicheskiy | Pedagogical |
| Psixologik | Psixologicheskiy | Psychological |
| Mashg‘ulot | obucheniye | Training |
| Tajriba | Eksperiment | Experiment |
| Bolalar | Deti | Children |
| Asos | Osnova | Base |
| Tadqiqot | Issledovaniye | Exploration |
| Maqsad | Sel | Purpose |
| Yondashuv | Podxod | Approach |
| Rivojlantirish | Razvivat | to Develop |
| Tizim | Sistema | a Relationship |

| | | |
|---|---|---|
| Mazmun | Soderjaniye | Contents |
| Shakl | Forma | Form |
| Usul | Sposob | Way |
| Amaliyot | Praktika | Activity |
| Metod | Metod | Method |
| Guruh | Gruppa | Group |
| Vosita | Sredstvo | Facility |
| Shakllantirish | Formirovat | statement |
| Natija | Rezultat | Result |
| Xulosa | Vivod | Conclusion |
| Javobgarlik | Otvetstvennost | liability |
| O‘yin | Igra | Play |
| Sifat | Kachestvo | feature |
| Tarbiyachi | Vospitatel | Vospitateli |
| Inson | Chelovek | Persons |
| Maorif | Obrazovaniye | Formation |
| Olim | Uchyoniy | Taught |
| Tarbiya | Vospitaniye | Education |
| Qarashlar | Vzglyadi | Glances |
| Asoschi | Osnovatel | Founder |
| Qadimiy | Drevniy | Ancient |
| Uzluksiz | Neprerivniy | Continuous |
| Iroda | Volya | Will |
| Mustaqillik | Nezavisimost | Independence |
| Malaka | Navik | Command |
| Ijobiy | Polojitelniy | Positive |
| Tashkilotchilik | Organizatorstvo | Organize |
| Intiluvchanlik | Stremleniye | Eager |
| Tashabbus | Initsiativa | Initiative |
| Ta’sir | Vliyaniye | Influence |
| Kitob | Kniga | Book |

| | | |
|---|---|---|
| Kitobxonlik | Chteniya | Readings |
| | | |
| Madaniyat | Kultura | Gulture |
| Maktabgacha ta’lim tashkiloti | Organizatsiya дошколного образования | Организатион Пreschool treatment |
| Kutubxona | biblioteka | Library |
| Kutubxonachi | bibliotekar | Librarian |
| Badiiy adabiyot | Fantastika kniga | Fiction |
| Psixologik xususiyatlar | Psixologicheskiye osobennosti | Psychological feature |
| Xarakter | Nezavisimost | Charakter |
| Ertaklar | skazki | Fairy tales |

## Ichki taqriz.

**Nizomiy nomidagi TDPU**
**5A111801 –"Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi" (Maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti Yusupova Shoxida Xusainovnaning "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

## TAQRIZ

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar qatorida maktabgacha ta'lim tizimiga ham izchil yangiliklar kiritilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi, albatta, jamiyatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zukko, bilimdon, yuksak ma'naviyatli, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalashdan iborat. Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizmini takomillashtirish, uni jahon ta'lim standartlari talablari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, bolalari kamolga erishgan davlatlar taraqqiyotida bu omil o'ziga xos o'rin tutadi.

Mazkur tadqiqot ishi tuzilishiga ko'ra kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi atroflicha bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mohiyati qilingan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik ıadaniyatini shakllantirishning metodik asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida ıaktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning edagogik-psixologik xususiyatlari, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik ıadaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakl, metod va ositalari asoslangan.

Shunisi diqqatga sazovorki, dissertatsiya muallifi tomonidan tadqiqot ishida taklif etilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllatirish modeli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllatirish metodikasini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan

Dissertatsiyaning **"Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish da ,pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari"** deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha ta'lim katta yoshidagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik imkoniyatlari, shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan.

Har bir bob so'ngida tadqiqotchi tomonidan xulosalar berilgan.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilgan:

- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi nazariy jihatdan asoslangan.
- Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlari tavsiflangan.

Tadqiqot ishi yuzasidan ayrim muloxazalarni bildirmoqchiman:

1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili berilmagan.

2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha ish shakllari to'liq yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning didaktik ta'minotini ishning ilova qismida berilsa uning amaliy ahamiyati oshgan bo'lar edi.

4.Tadqiqot ishining (7.11,15,.... betlarida ) imlo xatolar mavjud

Yuqorida keltirilgan mulohazalar ishning ilmiy-amaliy ahamiyatini

Kamaytirmaydi va Yusupova Shoxida Xusainovnaning "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Nizom talablariga javob beradi va uni himoyaga tavsiya etaman.

**Nizomiy nomidagi TDPU**
**Maktabgacha ta'lim metodikasi**
**kafedrasi prof.v/b,p.f.n** **D.R.Babayeva**

Tas'hqi taqriz.

**Nizomiy nomidagi TDPU 5A111801 –"Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi "(Maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti Yusupova Shoxida Xusainovnaning "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

**T A Q R I Z**

Yusupova Shoxida Xusainovnaning taqriz qilinayotgan dissertatsion ishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bag'ishlangan, chunki O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" kabi yo'nalish belgilangan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida kitob mahsulotlarini nashr etib va tarqatish tizimi rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamdan targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi qabul qilingan va belgilangan vazifalar asosida ishlar tashkil etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kitobxonlik madaniyatini shakllantirish nuqtai-nazaridan ushbu yo'nalishdagi ishlar amalga oshirilgan, lekin aynan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkonini bermagan.

Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, umumiy xulosalar va foydalanilga adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Dissertatsiyaning **"Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonl madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birin bobida maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning kitobxonlik madaniya

te

shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mohiyati qilingan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakl, metod va vositalari asoslangan.

Shunisi diqqatga sazovorki, dissertatsiya muallifi tomonidan tadqiqot ishida taklif etilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllatirish modeli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllatirish metodikasini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik nadaniyatini shakllantirish da pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish 'a uning natijalari**" deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha ta'lim katta 'oshidagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik nkoniyatlari, shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari eltirilgan.

Dissertatsiya natijalari aniq tasdiqlangan xulosalarga tayangan. Dissertatsiya ıkunlangan ilmiy-tadqiqot ishi bo'lib, muallif tomonidan mustaqil ravishda ıjarilgan.

Ish yuzasidan takliflar:

1. Tadqiqot ishida xorijiy davlatlarda maktabgacha katta ta'lim yoshidag lalar ta'lim-tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari kitobxonlik madaniyatin ıkllantirish bilan bog'liqlikda yanada kengroq yoritilishi lozim edi.

2. Dissertatsiyaning "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonli daniyatini shakllantirish foydalanish shakllari" deb nomlangan 2.2-paragrafi ta guruhi bolalari uchun mo'ljallangan ta'limiy faoliyat shakl, metod italari alohida jadval ko'rinishida taqdim etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi

3. Katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dasturini metodik ta'minoti kengaytirilgan variantda ilovada berilsa, ishning ama ahamiyati oshgan bo'lar edi.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalar dissertatsiyaning umumiy qimma ta'sir ko'rsatmaydi.

Magistrlik dissertatsiya tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniy shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiyasi mustaqil bajarilgan ha tugallangan;
– dissertatsiyaning asosiy mazmuni tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ishlarda o'z aksini topgan;
– Yusupova Shoxida Xusainovnaning magistrlik dissertatsiyasi unga qo' talablariga javob beradi va ishni himoyaga tavsiya etaman

**Toshket viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, p.f.n** **Xurvaliyeva T.L**

# Rahbar xulosa.

**Nizomiy nomidagi TDPU**
**"Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi" (Maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi magistranti Yusupova Shoxida Xusainovnaning "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

**XULOSASI**

Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadryatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mazkur tadqiqot ishida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muammosi tadqiq qilingan.

Mazkur tadqiqot ishi tuzilishiga ko'ra kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning mohiyati yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakl, metod va vositalari asoslangan.

Shunisi diqqatga sazovorki, dissertatsiya muallifi tomonidan tadqiqot ishida taklif etilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruh bolalarida kitobxonlik madaniyatini shakllatirish modeli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllatirish metodikasini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan.Tadqiqotchi katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonini loyihalashtirish, noan'anaviy ish shakllarini tavsiya etgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish da pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari"** deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha ta'lim katta yoshidagi bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik imkoniyatlari, shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan. Tajriba -sinov ishlari aniq ishlab chiqilgan dastur asosida tashkil etilgan, uning natijalari matematik jihatdan tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgan.

Tajriba-sinov ishlari bir necha bosqichda tashkil etilgan. Har bir bosqichda aniq vazifalar bajarilgan. Bosqichlar o'rtasida yagona birlik va o'zaro aloqadorlikning qaror topishiga alohida ahamiyat qaratilgan.

O'tkazilgan tajriba-sinov asosida tarbiyachilar va ota-onalar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Har bir bob so'ngida tadqiqotchi tomonidan xulosalar berilgan.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilgan:

1) Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muammosi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

2) Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlari tavsiflangan.

3) Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonlari modeli nazariy jihatdan asoslangan.

4) Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan.

5) Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonlarini tashkil etishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida ayrim mulohazali holatlar ham mavjud:

- Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribalar yetarlicha tahlil qilinmagan.
- Boblar bo'yicha xulosalar shakllantirilgan, lekin ularda tahliliy fikrlar to'liq yoritilmagan.

Yuqoridagi fikrlar ishning ilmiy qiymatini kamaytirmaydi.

Yusupova Shoxida Xusainovnaning "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Nizom asosida tayyorlangan bo'lib, uni himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar** | | **N.N.Djamilova**

**P.f.d, dotsent**


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ
ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ
TDPU
ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ
"Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторини
ривожлантириш: янги шакллар ва таълим мазмуни"
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
"Развитие государственного и негосудартсвенного
сектора в дошкольном образовании: новые формы и
содержание образования"
INTERNATIONAL SCIENTIFIC
PRACTICAL CONFERENCE
"Improvement of the state and non-state preschool
education sectors: new forms and education-content"
II
20 апрель 2019 йил

| | |
|---|---|
| *Шайзакова Н.С., Махаммадова М.Х.* Тарбияланувчиларни эстетик руҳда тарбиялаш – долзарб педагогик муаммо | 171 |
| *Sharipova D.* Maktabgacha yoshdagi bolalarning jamoada ahloqiy sifatlarini shakllantirish | 173 |
| *Шарипова Д.Д., Таирова М.* Развитие у воспитанников ДОУ компетенций по основам формирования здорового образа жизни | 175 |
| *Шарипова М.* Теоретические основы формирования правильной осанки и предупреждения плоскостопия с помощью физических упражнений | 176 |
| *Ширбачева Г.Ш.* Качество управления дошкольным образовательным учреждением зависящее от руководителя | 178 |
| *Ширбачева Г.Ш., Ким Е.В., Бекматсуева А.В.* Игра как необходимая составляющая здорового развития дошкольника | 180 |
| *Ширбачева Г.Ш., Рушева Л.Р., Ирисбаева Н.Т.* Роль экономического воспитания в социализации детей дошкольного возраста | 181 |
| *Ширбачева Г.Ш., Саедуллаева Г.Р.* Нетрадиционные техники рисования | 183 |
| *Шодибекова Ф.Т.* Халқ огзаки ижоди намуналари оркали болалар нуткини ривожлантириш | 184 |
| *Шодмонова А.* Ключевые компетенции младших школьников | 186 |
| *Шодмонова Ш.С., Ҳамзаев Ҳ.Х., Сулаймонова М.* Мактабгача таълим йўналиши талабаларида ижтимоий фаоллик кўникмаларини шакллантириш мотивацияси | 188 |
| *Шодмонова Ш.С., Атаджонова Д., Тиллабоева И.* Мактабгача таълим йўналиши тарбиячиларида касбий компетентликни шакллантириш ва ривожлантириш методлари | 191 |
| *Ergashaliyeva N.X.* Bolalarni atrof-olam va tabiat bilan tanishtirishda interfaol metodlardan foydalanish | 194 |
| *Эргашева М.Х.* Катта мактабгача ёшдаги болаларда меҳнат кўникмаларини шакллантиришнинг аҳамияти | 196 |
| *Эркабоева Н.Ш.* Мактабгача таълимга замонавий ёндашув | 197 |
| *Ermatova G.P., Tuxtayeva M.I.* Maktabgacha ta'lim yangi rivojlanish bosqichida | 199 |
| *Эсонова М.А.* "Илк қадам" давлат ўқув дастури асосида болаларни мактаб таълимига тайёрлашда инновацион технологияларни қўллаш | 201 |
| *Эшмўминова Т.Б.* Болаларнинг нуткини ривожланишида эртакларнинг аҳамияти | 202 |
| *Эшонкулова М.Х.* Организация обучения элементам математики детей младшего возраста | 204 |
| *Eshonqulova M.H.* Kichik yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish | 206 |
| *Эшчанова Г.Н.* Ноодатий тадбирлар ва уларнинг бола ривожланишига ижобий таъсири | 208 |
| *Юзликаев Ф.Р.* Профессиональные компетенции будущего учителя с позиции системно-целостного подхода | 210 |
| *Yuldasheva D.* Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ilk huquqiy tushunchalarni shakllantirish | 212 |
| *Юлдашева М.Ю.* Болани мактабга тайёрлаш жараёнида мустақил мулоқотга ўргатиш | 213 |
| *Юлдашева Н.А.* Ривожлантирувчи таълим - педагогнинг методик тайёргарлигини мукаммаллаштириш омили | 215 |
| *Юнусова Д.С., Тожибоев М.М.* Концепция технологии физического воспитания детей старшего дошкольного возраста 5-6 лет средствами национальных и подвижных игр спортивной направленности (на материалах опыта работы) | 217 |
| Yusupova SH. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish | 220 |
| Yakubova S.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni lug'atini boyitish usullari | 221 |
| *Yakubova Z.* Maktabgacha yoshdagi bolalarda tashabbuskorlik malakalarini shakllantirish | 223 |
| *Қодирова Г.Х.* Ўкувчиларнинг ижодкорлик қобилияти ва инновацион фикрлашини ривожлантириш аспектлари | 224 |
| *Қодирова Ф.Р.* Мактабгача ёшдаги болаларни бадиий адабиёти билан таништириш тизими | 227 |
| *Qayumova D.K., To'laganova M.R.* Maktabgacha yoshdagi bolalarni mexribonlik tuyg'usida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodlaridan foydalanish mazmuni | 229 |
| *Қодирова Ш.Х., Мамадиева З.* Мактабгача таълим ёшидаги болалар нуткини ўстиришда она тилининг аҳамияти | 231 |
| *Қосимова Д.Б.* Мактабгача ёшдаги болаларга табиат гўзаллигини эстетик идрок этишга ўргатиш орқали экологик таълим йўллари | 232 |
| Qurbonova D.Sh., Alimbayeva N.Q. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalari | 234 |


264

Результаты этой подготовки периодически оцениваются в специально организованных соревнованиях по многоборью. Для детей старшего дошкольного возраста они напоминают игры, разнообразные по содержанию и эмоциональные по характеру проведения. В качестве примера приводится 3 варианта оптимального соотношения видов испытаний по типу многоборья. В соревнованиях определяется результат по сумме 3-4 упражнений.

# MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Yusupova SH.**
***Toshkent davlat pedagogika universiteti, magistrant***

O'zbekiston Respublikasining "Talım to'grisida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da xam ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan: "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda halqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladı. Shaxsni tarbiyalash va uni xar tamonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi" - deb alohida ko'rsatib o'tilgan [1]. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish Harakatlar strategiyasining ustivor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyati ni oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar to'g'risida" PQ-3271 qarori kitobxonlik madaniyati dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan davlat siyosati darajasidagi masala sifatida kun tartibiga qo'ydi [1].

Ta'lim oluvchilarda kitobxonlik, kitobni sevish kabi sifatlarini shakllantirish masalalari g'oyat muhim muammolardan biridir. Mazkur muammo xalq pedagogikasi, islomiy adabiyotlar, buyuk mutafakkirlarning ta'limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog'langan holda talqin etilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Axmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy, Zahriddin Muhammad Bobur, keyinroq esa Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta'limiy-axloqiy qarashlarida kitob va uning ilm olishdagi o'rni haqidagi fiklari bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Shuning uchun ham ma'naviyat, ta'lim, xususan oila muammolari bilan shug'ullangan faylasuf, psixolog, pedaagog, adabiyotshunos olimlar oila kitobxonligining yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rniga alohida axamiyat berganlar. Pedagog olimlar O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova, U.Maxkamov, M.Quronov, S.Ochilov M.Nigmatovlarning tadqiqodlarida oilada bolalar kitobxonligi, mustaqillik va ma'naviy kamolot negizlari, shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish hamda komil inson tarbiyasida kitobning o'rni kabi muammolar bilan uyg'un xolda tadqiq etildi.

Keyingi o'n yillikda kitobxonlik muammolari va uni xal etish bo'yicha A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, S.Matjonov, M.Mirqosimova, T.Niyazmetovalar adabiy ta'lim jarayonida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, oilada bolalar kitobxonligini tashkil etishda kitob bilan ishlash metodlari xaqida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Jo'rayev, M.Murodov, X.Jamolov, F.Habibullayev, L.A.Nikitina, L.Strel'kova, I.V.Grebennikov, N.I.Bocharova, O.G.Tixinova va boshqalar esa kitobxonlik, oila kitobxonligi, kutubxonalar bilan hamkorlik muammolariga doir tadqiqot ishlari olib bordilar. Xususan, M.M.Nigmanova maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tadqiq etdi. Kitob – barcha davrlarda bolalarning dunyoni anglashi, do'st orttirishi, hayotda o'z o'rnini topishiga ko'makchi bo'lib kelgan. Bola qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr-oqibat tuyg'ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlangan.

Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari etaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi. Kitob maslahatchi, sadoqatli hamrox, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rni muhim. Hamma asrlarda bo'lgani kabi ayni davrda ham yoshlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Kitob o'qigan bola o'z bilimi, dunyoqarashi, ruhiyati va manaviyatini boyitib, olamni teran anglay boshlaydi. Hayot va go'zallikni qadrlashni, ajdodlarimiz merosini asrab-avaylashni o'rganadi. O'zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylash va kitobxonlik qadimiy an'analardan biri bo'lib, xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutib kelmoqda. [3]. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ota-onalar bolalarni kitob dokonlarga olib borish,ularga rasmli kitoblarni sovg'a qilishi ularda kitobga bo'lgan muxabbatini uyg'otadi.

**Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha xarakatlar strategiyasi to`g`risidagi PF-4947-sonli farmoni. 2017-2021 yillar.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora tadbirlar to`g`risida"gi PQ-3271-sonli qarori. 2017 yil 13-sentabr.
3. Yoldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. –T.: Ozbekiston, 2003.
4. Mutolaa madaniyati; shaxs, jamiyat, taraqqiyot. –T.: Fan, 2004.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI LUG'ATINI BOYITISH USULLARI

**Yakubova S.N.**
**Mirzo Ulug'bek tumani 134-MTM, tarbiyachi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom" qabul qilindi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 528-son «Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» gi qaroriga muvofiq davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida (bundan buyon matnda maktabgacha ta'lim muassasasi deb yuritiladi) tarbiyalanuvchilarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish tartibini belgilaydi[33].

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishlarining moxiyati – bu til leksikasi soxasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin xisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o'z amaliyotida qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan, to'satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so'zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa'y-xarakatlarni talab qiladi.

Bolalar lug'atini boyitish bir vaqtning o'zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so'zni ma'lum qilish va uning ma'nosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki xodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

Lug'at ishlarini o'tkazishda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy tarzda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf qiladi (ta'qiqlaydi), ularni adabiy me'yorlar bilan almashtiradi.

«Lug'atni egallash» atamasi – bu nafaqat so'zni o'zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta qo'llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir.

Insonning yuqori nutq madaniyati, lug'atining boyligi xaqida u «eshitilgan», insonning jonli nutqini bezab turgan taqdirdagina so'z yuritish mumkin.

Lug'at ishidagi asosiy jixat – bu faqat bolalarga yangi so'zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishi – bu bolalarning faol lug'atini notanish yoki ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir. O'zbek tili lug'ati to'xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo'ladi. Undagi o'zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yangi narsalar va xodisalarning paydo bo'lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so'zlar xam paydo bo'ladi. Bundan tashqari ilgaridan mavjud bo'lgan ayrim so'zlar yangilanadi, ularning ma'nosi o'zgaradi, ko'p so'zlar muomaladan chiqib ketadi. Bolalar bilan lug'at ishlarini o'tkazishda so'zning rivojlanuvchi tusga egaligini xisobga olish zarur.[34]

O'zbek tilining lug'at tarkibini umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil qiladi. Bu o'zbek tilida so'zlashayotgan odamlarga qo'shimcha izoxlarsiz tushunarli bo'lgan va muomala uchun zarur bo'lgan so'zlar guruxidir. U uzoq vaqt mobaynida yaratilgan. Bolalar lug'atini folklor elementlari (qo'zim, toychog'im, ona qizim) bilan xam boyitish darkor, chunki ma'lum xollarda (qayta xikoya qilish

[33] Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг роли. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
[34] Бабаева Д.Р. Нутқ ўстириш назарияси ва методикаси. –Т., 2016.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"MAKTABGACHA TA'LIM" FAKULTETI

**"MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASH: INNOVATSIYALAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA"**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari

# MATERIALLARI TO'PLAMI

| | |
|---|---|
| Элнура Габдулманова. МУСИҚА САНЪАТИ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ВОСИТАСИ СИФАТИДА | 263 |
| Nurmatova Iroda To'xtasinovna, Ozodova Zebuniso Hamroqul qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA KITOBXONLIKKA QIZIQISHINI TARBIYALASH | 265 |
| Икрамова Камола, Шарипова Мафтуна, Гельфанова Регина. ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ ДОШКОЛЬНИКОВ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ | 267 |
| Расулходжаева Мадина Ахмаджановна, Исмаилова Мафтуна Юсуф кизи, РавшановаДурдона Нарзулло кизи. ЯЗЫК – ЯВЛЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ | 269 |
| Sh.T.Xasanova, X.Beknazarova, X.Sultonova. BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATLARINING RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI | 270 |
| Babayeva D. R. Qudratullaeva Zuxra Toxir qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA MOSLASHUVI | 272 |
| Л.Р.Миржалолова. БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ҚИЛИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ТАРКИБ ТОПТИРИШДА РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАРИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ | 275 |
| D.Nazarmatova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH | 277 |
| Ш.Юсупова. КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИ ҲАҚИДА АЛЛОМАЛАРНИНГ ҚАРАШЛАРИ | 278 |
| Хошимова. Ё.И. МАКТАБГАЧА ТАЬЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ БОЛАЛАРИНИ СИФАТЛИ МАКТАБГА ТАЙЁРЛАШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ | 280 |
| N.Ro'zimatova, O.Parmonova, Sh.T.Xasanova. TASVIRIY FAOLIYATNING BOSHQA FAOLIYATLAR BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI | 282 |
| Sh.T.Xasanova, N.Yo'ldoshxova, M.Shaharibova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINI O'RNI | 284 |

mlari, ayniqsa, harakatli va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar orqali to'liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o'yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega.

- O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o'rin egallab, u eng avvalo, o'yin orqali ta'lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o'yiniga ajratilgan vaqtni mashg'ulot yoki kun tartibidagi boshqa tadbirlarni cho'zib yuborish orqali egallash mumkin emas. Maktabgacha ta'lim muassasasi tayanch dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg'ulotlar o'tkazish bilan bir qatorda o'yin ham kiritilgan. O'yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi.

-O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o'yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko'nikma va malakalari, harakat usullari, axloq meyorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

- O'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning metod va usulidir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi.

**Adabiyotlar:**

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi, Toshkent 2018.

2. Sodiqova SH.A Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo'stoni 2013.

## КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИ ҲАҚИДА АЛЛОМАЛАРНИНГ ҚАРАШЛАРИ

**Ш.Юсупова**
Низомий номидаги ТДПУ
2-боскич магистри

Ўтмишдаги олимлар, мутафаккирлар ўзларида бўлган барча билимларни авлодларга наслдан-наслга мерос бўлсин деб ардоқлаб, китоб саҳифаларига битиб қолдирганлар. Кейинги авлодлар эса аждодлардан ибрат олиб, замондошлари ҳаётини, улар яратган ноёб маънавий бойликларни жамлаб,

китоблар ёзиб қолдирганлар. Шунинг учун ҳам китоб инсониинг энг яқин дўсти, маслаҳатчиси, билим манбаи ҳисобланади.

Китоб инсоният онгли ҳаётининг, маънавият оламининг бош тимсолларидан саналиб келинади. Машҳур донишмандлар китоб ҳақида жуда кўп қимматли фикрларни билдирганлар. Китобхонлик кеча ёки бугун туғилган эмас. Хусусан, Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғатит турк", Абу Абдулло ал- Хоразмийнинг "Мафатиҳ ал-улум", Юсуф Хос Ҳожибнинг "Кутадғу билиг", Носируддин Бурхонуддин Рабғузийнинг "Қисаси Рабғузий", Хондамирнинг "Макорим ул-ахлоқ" ва Алишер Навоий, Заҳириддин Бобурларнинг қатор асарларида китобхонликка оид қимматли фикрлар баён қилинган.

Абдураҳмон Жомийнинг китоб ҳақидаги ушбу мисраларини келтиришимиз мумкин:

Билимдонлар сўзи бордур бу бобда:
"Билимдон гўрда-ю, илми китобда!"
Агар елгиз эсанг, ҳамдам китобдур,
Билим субҳидаги нур ҳам китобдур.

Китоб ва китобхонлик ҳақидаги халқ анъанавий пандномаси билан улуғларнинг дунёқараши, мулоҳазалари бир-бирига жуда яқин, бири иккинчисини тўлдиради. Бу ҳол китобнинг катта маънавий кучга эгалиги, китобхонлик инсон учун юксак мезон экани билан изоҳланади.

Китобхонлик тор маънода китоб ўқишни билдирса, кенг маънода танлаб ўқиш, ҳис этиш, англаш ва фикр билдириш тушунчаларини ўз ичига камраб олади. У бадиий адабиёт, адабий танқид ва педагогика кўмагида юксала боради.

Жумладан, "Қисаси Рабғузий" муқаддимасида муаллиф шундай ёзади: "... пайғамбарлар қиссаларига ғоят рағбатим бор. Текма ерда, текма ким эрса-да, бўлинур баъзиси мустақим бор, баъзиси номустақим. Бир ангаси муқаррар ва бир ангаси мубаттар бор. Бир озининг сўзлари кесук бор, бир озининг мақсудлари ўксук. Эмди санинг зиммангдин чиқған, қаламунгдан оқған, китобатма санинг, иборатма санинг бўлуб, "Қисас ул-анбиё" бўлса, ўқумоқға кераклик, ўрганмоққа ярoғлиғ бўлғай эрди, теб илтимос янглиғ ишорат бўлди эрса нечама ўзумни ул ишга лойиқ, ул амалга мувофиқ эрмасин теб, бу оғир ишга ўградимиз (киришдик, қўл урдик)".

Юқорида айтилганлардан шундай хулосага келиш мумкинки, китобхонлик адабиётшунослик ва таълим-тарбиянинг муштарак ва муҳим соҳаси сифатида, шубҳасиз, чуқур изланишларни тақозо этади. Унинг ривожини адабиётнинг тараққиёти билан боғлаб ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Кишининг маданияти унинг китобида акс этади. Шу маънода бугунги кунда китоб ўқиш ва унга муносабат бир қадар сусайгандек. Чунки ёшлар кўпрок кино, видео, телевидение, компьютерга берилиб кетди. Компьютер ҳозирги кунда кўпгина хонадонларга ҳам кириб келган. Исталган янгилигу ахборотларни бу воситалардан хоҳлаганча олиш мумкин. Ачинарлиси, бугун китоб ўқиш учун вақт сарфлашга хожат йўқдек. Аслида, ҳеч бир ахборот воситаси, кино ёки видеофильм бадиий асар ўрнини босолмайди. Масалан, "Ўтган кунлар" романи

асосида ишланган фильм канчалик маҳорат билан суратга олинган бўлмасин, китобнинг таъсирини, жозибасини беролмайди.

Китобхонлик оиладаги муҳитга ҳам боғлиқ. Маърифатли оилаларда китобга эътибор фарзандлар тарбиясида қўл келади.

Китобни инсон тафаккурининг қанотларига ўхшатишган. Зеро, тафаккури, фикр доираси кенг, маърифатли кишилар жамиятнинг чинакам бойлигидир. Аксинча, ҳаётда рўй бериб турадиган айрим нохушликлар илдизи эса маърифатсизлик, китоб ўқимасликнинг аччик меваси.

Бирок инсониятнинг минг-минг йиллар давомида қўлга киритган ақлий ҳамда фикрий дурдоналарини ўзида жамлаган китоблар асло эскирмайди.

Бинобарин, китоб-ҳамиша илм-маърифат, адаб ва ахлоқ манбаи бўлиб келган. Бугунги кунда ёш авлодни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашда ҳам китобдан кўра кудратлирок восита йўқ.

**Адабиётлар:**


1.Умаров А. Китоб ва китобхон: анъаналар ва янгиликлар.Соғлом авлод учун.-2003.-№ 11.-Б.16-20.

2.Файзиев А. Китоб ўқиш керак: Жамиятда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялашда китобнинг роли хақида Т-2008.-12 апр.

3.Ғаниева Б. Болалар ўқиш маданиятини тарбиялашнинг муаммолари "Кутубхона ресурсларидан фаол ва ижодий фойдаланиш муаммолари" Давра суҳбати материаллари.-Т., 2004.-Б.135-137.


## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ БОЛАЛАРИНИ СИФАТЛИ МАКТАБГА ТАЙЁРЛАШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ


**Хошимова. Ё.И.**

Низомий номидаги ТДПУ

«Мактабгача таълим» йуналиши

1-курс магистри


Болаларни мактабга тайёрлашда оила алоҳида аҳамият касб этадиган маскандир. Бола тарбиясида оиланинг барча аъзоларидан нафақат болаларга нисбатан тўғри муносабатни, балки уларнинг тақдири учун юксак маъсулият ҳиссини ҳам талаб қилувчи қийин ва мураккаб ишдир.

Оила болани мактабга тайёрлашда тарбияни ҳар томонлама, жумладан маънавий, ахлоқий, ақлий, эстетик, жисмоний ва меҳнат тарбияларини биргаликда олиб бориш яхши самара беради.

***Маънавий тарбия***ни болага ўтмишда Ватан равнақи, эл-юрт тинчлиги ва фаровонлиги йўлида курашган халк қаҳрамонлари ҳақида гапириб бериш, давлатимизнинг рамзий белгилари билан таништириш, мустақиллик, Ватан ҳақидаги шеър ва қўшикларни ёд олдириш, қадрият ва анъаналаримизни ўргатиш орқали сингдириш мумкин.

Оилавий тарбия жараёнида шахснинг бир қатор ***ахлоқий*** жиҳатлари

# MAKTABGACHA TA'LIM FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: INNOVATSIYA VA ISTIQBOLLAR

MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

# TO'PLAMI






Navoiy-2019

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS**
**TA'LIM VAZIRLIGI**
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**
**MAKTABGAChA VA BOS'HLANG'ICh TA'LIM FAKULTETI**

**MAKTABGAChA TA'LIM KAFEDRASI**
**MAKTABGAChA TA'LIM FAOLIYaTINI TAKOMILLAS'HTIRIS'H: INNOVATSIYa VA ISTIQBOLLAR**
**MAVZUSIDAGI**
**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYaSI**

**1-KITOB**

2019-yil 28-mart

Navoiy s'hahri

Mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25fevraldagi I33-f-sonli farmoyis'hi va O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining 2019-yil 28-fevraldagi 205-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan ―Maktabgacha ta'lim faoliyatini takomillas'htiris'h: innovatsiya va istiqbollar'' mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari asosida tuzilgan bo'lib, keng kitobxonlar, xususan, professor-o'qituvchilar, maktabgacha ta'lim sohasi xodimlari, magistr va bakalavr ta'lim yo'nalis'hidagi talabalar uchun mo'ljallangan.

Us'hbu ilmiy-amaliy konferensiya materiallarini tayyorlas'h boyicha mas'ullar:

Ma'sul muharrir: R.H.Davlatova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar: p.f.n. S.S.Sayitov,
p.f.n., dots. D.A.Ahatova

Ma’ruzalarda foydalanilgan misol, ko’chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

Navoiy davlat pedagogika instituti navbatdan tas’hqari Kengas’hining 8-sonli yig‘ilis’hi qarori bilan nas’hrga tavsiya etildi. (2019-yil, 25-mart)

## 1-S’HO’BA: MAKTABGAChA TALIMNING DOLZARB MUAMMOLARI: YEChIM, SIFAT VA SAMARADORLIK

## Mundarija.

BuxDU Maktabgacha ta’lim magistratura talabalari……...................………62

Maktabgacha ta’lim tizimini takomillas’htiris’h yo’lida yangicha yondas’huvning samarali natijalari Yusupov Elyorbek Erkinjon o’g‘li – AndMI talabasi

Satimboyeva Xurs’hida Anvarjon qizi - ADU talabasi……........……64

Maktabgacha ta’limda axloqiy tarbiyaning muhim jihatlari

Sohiba S’harapova - TerDU 1-kurs magistranti…………………………………..65

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya beris’hda musiqaning o’rni S’heraliyeva M.- TerDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi…..........................................................................................67

Tarbiya va qadriyatlar Altibaeva Gulbaxor Majitovna-Termiz davlat universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi Qodirova Guls’hoda Azamat qizi-Termiz davlat universiteti talabasi……………………………………..68

Maktabgacha tarbiya yos’hida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanis’h S.S.Xodjayeva- Buxoro davlat universiteti katta o’qituvchisi………………………...................................………….70

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantiris’h imkoniyatlari Maqsuda Norbos’heva-Termiz davlat universiteti katta o’qituvchisi Sayohat Abdumajitova, 3-bosqich talabasi

………………………………………………………………………………71
Maktabgacha yos’hdagi bolalarda kitobxonlik malakalarini s’hakllantiris’h S’H.Yusupova- TDPU, 1-bosqich magistri………………………………………..73
Maktabgacha yos’hidagi bolalarga ilk tejamkorlik tus’hunchalarini s’hakllantiris’h
Raximova Gulhayo Fazliddin qizi NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo’nalis’hi 2-kurs talabas.............…………………..…………………………………74
Komil inson tarbiyasida - sog‘lom turmus’h tarzi
X.B.Alikulova-NavDPI ―Umumiy pedagogika va psixologiya‖kafedrasi katta o’qituvchisi Tukmurodova Malika Elmurodovna NavDPI, Chet tillar fakulteti
talabasi..........................................................................................................76
Rahbar s’haxsiga xos xislatlar G.P.Ermatova- NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o’qituvchisi B.Boboqulova-NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo’nalis’hi 3-kurs talabasi………………………........................……………………...78
Milliy xalq o’yinlari asosida maktabgacha ta’lim yos’hidagi bolalar nutqidagi kamchiliklarni tuzatis’h Musayeva S’hahlo Qudratovna NavDPI, Maktabgacha ta’lim
kafedrasi ‘qituvchisi…………………………………………………………79
Maktabgacha yos’hdagi bolalarni kattalar mehnatiga hurmat va qiziqis’h ruhida tarbiyalas’h Haydarova S’H.N.- NavDPI. Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o’qituvchisi Axmatova N.S.- NavDPI.Maktabgacha ta’lim yo’nalis’hi 1-kurs talabasi……....................................……………………………………..81

**MAKTABGAChA YoS’HDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MALAKALARINI S’HAKLLANTIRIS’H**

**S’H.Yusupova- TDPU, 1-bosqich magistri**

O’zbekiston mustaqillikka eris’his’hi munosabati bilan uning jamiyat tizimida sifat jihatdan ko’pgina o’zgaris’hlar sodir bo’ldi. Respublikada amalga os’hirilgan ijtimoiyiqtisodiy, madaniy va siyosiy islohotlar jamiyatning tubdan yangilanis’hi, qayta qurilis’hi uchun muhim zamin yaratdi, s’hu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasida ham keng islohotlar o’tkazis’h imkoniyatlari vujudga keldi. Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantiris’hning bes’hta ustuvor yo’nalis’hi bo’yicha barcha soha va tarmoqlarda ulkan o’zgaris’hlar amalga os’hirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptiris’hga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yos’h avlodning ma’naviy intellektual salohiyati,ongu tafakkuri va dunyoqaras’hini yuksaltiris’hda,ona Vatani va xalqiga muxabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yas’haydigan barkamol s’haxsni tarbiyalalas’hda beqiyos ahamiyatga ega bo’lgan kitobxonlik madaniyatini os’hiris’hga alohida e’tibor qaratilmoqda .[19] Demokratik islohotlarni chuqurlas’htiris’h va fuqarolik jamiyatini rivojlantiris’h jarayonida yos’hlarning ijtimoiy faolligini os’hiris’h, yos’hlarga oid davlat siyosatini amalga os’hiris’hda davlat hokimiyati va bos’hqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yos’hlar va bos’hqa tas’hkilotlarning samarali faoliyatini tas’hkil etis’h Harakatlar strategiyasining ustivor yo’nalis’hi etib belgilandi .

Ta’lim oluvchilarda kitobxonlik, kitobni sevis’h kabi sifatlarini s’hakllantiris’h masalalari g‘oyat muhim muammolardan biridir.

Kitob mahsulotlarini nas’hr etib va tarqatis’h tizimi rivojlantiris’h, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini os’hiris’h hamdan targ‘ib qilis’h bo’yicha kompleks chora

---

[19] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha xarakatlar strategiyasi to`g`risida‘‘gi PF-4947- sonli farmoni.2017-2021 yillar.

tadbirlar dasturi qabul qilindi: unga ko’ra dasturda ko’zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga os’hiris’hga alohida e’tibor qaratildi. [20]

Axborot – kutubxona faoliyatini kuchaytiris’h, ta’lim muassasalari axborot – resurrection markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tas’hkilot va muassasalarning Ma’naviyat xonalarini o’qitis’h – uslubiy, technology adabiyotlar, adabiy – badiy, ma’rifiy va ilmiy – ommabop kitoblar bilan boyitis’h, ularning moddiytexnik ba’zasini mustahkamlas’h;

Kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini os’hiris’hga doir tas’hviqot is’hlarini tizimli va samarali tas’hkil etis’h, bu borada kitobxonlar va kutubxonachi va targ‘ibotchilar o’rtasida «Eng kitobxon maktab», «Eng kitobxon mahalla», «Eng kitobxon oila», «Eng faol kutubxonachi»,kabi ko’rik tanlovlarning saralas’h bosqichlarini yuqori saviyada o’tkazis’hni yo’lga qo’yis’h kabi masalalar yoritilgan. ―Yos’h avlodni ma’naviy – axloqiy tarbiyalas’hda halqning boy milliy madaniytarixiy an’analariga asoslangan samarali tas’hkiliy , pedagogik s’hakl va vositalari is’hlab chiqilib,amaliyotga joriy etiladi. S’haxsni tarbiyalas’h va uni xar tamonlama kamol toptiris’hning ustuvorligi ta’minlanadi,‖- deb alohida ko’rsatib o’tilgan.

Bu muhim vazifani amalga os’hiris’hda oila kitobxonligini rivojlantiris’h katta ahamiyat kasb etadi. Zero, o’zbek oilasi yos’h avlodni kitob vositasida tarbiyalas’hda o’ziga milliy tajribaga ega. Ammo hozirgi davrda o’zbek oilalarida hususan, yos’hlarda kitobxonlikning susayis’hi sezilmoqda. Bularni, asosan:O’zbekistonda kutubxonachilikning huquqiy asoslari yaratilmaganligi, ya’ni, mahsus Qonun qabul qilinmagani;mamlakatimizda elekton kutubxonalarning etarli taraqqiy etmaganligi; kitob targ‘ibotining zamon talabi darajasida yangi metod va usullarining is’hlab

[20] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ‗Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyati ni oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora tadbirlar to`g`risida qarori. 2017 yil 13-sentabr. PQ-3271.

chiqilmaganligi; kutubxonalarda kitob jamg‘armasining kamayib ketgani; ayrim ota-onalarning o’z farzandlari kitobxonligi ma’suliyatini maktabga yuklab qoyganligi; o’smirlar yos’higa mos yangi badiiy adabiyotlar, bolalarbop ilmiy risolalar , qiziqarli qo’llanmalarning kam chop etilayotgani; ommaviy axborot vositalari,radio,TV axborot texnologiya sining oilalarga chuqur kirib boris’hi; kitobxonlikni s’hakllantiris’hga doir ilmiy tadqiqot is’hlarining kam olib borilayotganligi bilan tavsiflas’h mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantiris’h bo’yicha xarakatlar strategiyasi to’g‘risida’’gi PF-4947- sonli farmoni.2017-2021 yillar.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘Kitob mahsulotlarini nas’hr etis’h va tarqatis’h tizimini rivojlantiris’h, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyati ni os’hiris’h hamda targ‘ib qilis’h bo’yicha kompleks chora tadbirlar to’g‘risida qarori.

2017 yil 13-sentabr. PQ-3271.

3.Yo’ldos’hev E.Kutubxona va yos’h kitobxon. T.O’zbekiston.2003.